

A. MANSUROV, D. KARIMOVA

# MUSIQA

5-sinf uchun darslik



G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti

**AVAZ MANSUROV, DILDORA KARIMOVA**

# MUSIQA

**5-sinf uchun darslik**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*

**G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti  
Toshkent — 2001**

## SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchilar! Sizlarga mo‘ljallangan 5-sinfning “Musiqqa” darslikdagi darsliklardan butunlay farq qiladi. Bu darslik Mustaqillik sharoiti bilan yangi milliy o‘quv dasturi asosida yaratildi. Undagi mavzular sizlarga milliy o‘zbek xalq cholg‘u asboblari, kuy va qo‘shiqlari, o‘zbek xalq san‘ati, jahon musiqa madaniyati durdonalari kabilar haqida ma‘lumot beradi. Mustaqil O‘zbekistonimiz 10 yil ichida juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Katta-katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Xalq ta‘limi, Sport, San‘at sohasidagi yutuqlarimizga bir nazar tashlaylik. Mustaqil O‘zbekistonimizga bag‘ishlab yaratilgan yangi asarlar, kuy va qo‘shiqlar butun jahon bo‘ylab qanot yozib, yoshlarimizni milliy g‘oya va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ishonamizki, Mustaqil O‘zbekistondagi darslik Vatan tuyg‘usini qalbingizga singdirib, musiqa haqidagi bilimlaringizni oshirishga xizmat qiladi.

*Mualliflar*

...Musiqqa insonni sehrlaydi, ezgulikka, mehr-shafqatga, muhabbatga, shirin orzularga undaydi, yomon yo‘ldan qaytaradi, o‘ylatadi, yig‘latadi, uldiradi.

... Musiqqa inson hayotiga ko‘makdosh, hamroh.

... Musiqani yorug‘likka, yonib turgan chiroqlarga o‘xshatish joiz.

# I CHORAK

---

## O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI. XOR SAN'ATI

### *1-dars.* ORKESTR TURLARI HAQIDA. O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI VA UNING DAMLII CHOLG'ULAR GURUHI

Orkestr — turli cholg'u ijrochilari guruhlaridan tuzilgan jamoa bo'lib, ko'rsatilgan tarkib uchun yaratilgan musiqa asarini ijro etadi. Hammamiz biladigan kichik ansambllardan farqi shundaki, ularda sozandalar soni ko'p bo'lib, bir necha guruhdan tashkil topadi. Orkestrlar cholg'ular tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlicha bo'ladi:

Simfonik orkestr, Duxovoy orkestr, Torli orkestr, Estrada orkestri, O'zbek xalq cholg'ulari orkestri shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, hamma xalqlarning ham o'z cholg'ularidan tuzilgan orkestri bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan orkestrlardan tashqari tarkibi kamaytirilgan kamer (kichik) orkestrlar ham uchrab turadi.

Uzoq davrlardan beri xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan sozlarimizdan 1936- yilda birinchi xalq cholg'ulari orkestri tuzilgan. Cholg'ularimizdan ba'zi birlari temperatsiya qilinib (ya'ni, bir xil sozlanishga yaqinlashtirilib), katta-kichik turlari ishlab chiqildi. Bularga katta-kichik nay, katta-kichik g'ijjaklar, changlar, ruboblar, du-torlarni kiritish mumkin.

Bunday orkestr uchun O'zbekiston bastakorlari yangi asarlar ijod qilishdi, xalq kuylarini qayta ishlashdi, jahon mumtoz bastakorlarining asarlarini moslashtirishdi.



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi

## Tantanavor

1. Ser- qu- yosh, hur o'1- kam, el-  
ga baxt, na- jot, Sen o'- zing do'st-lar- ga  
yo'1- dosh, meh- ri- bon! Meh-ri- bon! Yash-na-  
gay to a- bad il- mu fan, i-jod, Shuh-ra-ting por- la-  
sin to- ki bor ja- hon! Ol- tin bu  
vo- diy -lar — jon O'z- be- kis- ton, Aj- dod-  
lar- mar- do- na ru- hi sen- ga yor! U- lug'

xalq qud- ra- ti jo'sh ur- gan za- mon, O- lam-  
ni mah- li- yo ay- la- gan di-  
yor! Bag' - ri gan di- yor!!

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!


Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Xaqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:


Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!



## SHOVQINLI TOVUSHLAR VA MUSIQIY TOVUSHLAR HAQIDA

 Tovushlar tabiatda ikki xil bo'ladi: shovqinli tovushlar va musiqiy tovushlar. Jismlar urilishi yoki musiqiy cholg'u ijrosi sabab havoda to'liqinlanish hosil bo'lib, yon atrofga tovushlar taraladi. Ular aniq balandlikka ega bo'lgan tovushlarga va balandligi noaniq tovushlarga ajraladi.

Musiqiy tovushlar baland-pastligi, uzun-qisqaligi, tembri va kuchi bilan bir-biridan farqlanadi. XI asrdan boshlab butun dunyoga musiqiy tovushlar pog'onalarining nomlanishi — DO, RE, MI, FA, SOL, LYA, SI bo'lib tarqalib ketgan. Pianino klavishlarining bo'lagida va nota qatorida ko'rinishi quyidagicha:



### Savol va topshiriqlar

1. Orkestr nima va uning qanday turlari bo'ladi?
2. Birinchi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri qachon tashkil topgan?
3. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri nechta guruhdan iborat?
4. Damli cholg'ular guruhiga qaysi cholg'ular kiradi?
5. "Qalbmida" kuyining ohangini biror cholg'uda chalib ko'ring yoki xirgoyi qiling.
6. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini kuylab, mualliflarini qisqacha ta'riflab bering.
7. Shovqinli tovushlar va musiqiy tovushlar haqida nimalarni bilasiz?



## **2-dars. O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRNING TORLI-URMA VA MEZROBLI CHOLG‘ULAR GURUHI**

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining torli-urma va mezrobli cholg‘ular guruhlari partituraga damli cholg‘ular guruhidan so‘ng pastdagi nota qatorlarini birlashtirib joylashtiriladi.

Torli-urma guruhga I va II changlar kiradi, alohida qatorlarga yoziladi.



Mezrobli (tirnab chalinadigan) cholg‘ular guruhi eng katta guruh hisoblanadi. Unga — prima ruboblari, qashqar ruboblari, afg‘on ruboblari, dutorlar, dutor-baslar, dutor-kontrabaslar kiradi va alohida qatorlarga yoziladi.



Sanab o‘tilgan guruhlar, cholg‘ular — yakka va qo‘shilishib asosiy kuyni ijro etishi bilan birga, yo‘ldosh (2-darajali) kuy yo‘llari va usul-garmoniya ko‘rinishlarida jo‘r bo‘lishlari ham mumkin.



*Sinf fonotekasidan “O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri” ijrosida Mustaf o Bafoyevning “Poema” asarini tinglang.*

### MUSIQADA KALITLAR



Musiqada 10 ta kalit bor. Ular cholg‘u sozlari va inson ovozi yangrash balandligini notaga olishda yoki ijro etib berishda katta qulayliklar yaratadi. Keng tarqalgan, hamma bilishi kerak bo‘lgan kalitlar 2 ta — Skripka kaliti va Bas kaliti. Skripka kaliti 1-oktavadagi “sol” notasini ko‘rsatadi:



Bas kaliti esa kichik oktavadagi “fa” notasini ko‘rsatadi:



Yuqori tovushlar yangrashi skripka kalitida, past tovushlar yangrashi bas kalitida yoziladi:



### Savol va topshiriqlar

1. Torli-urma va mezrobli cholg‘ular guruhlariga qaysi cholg‘ular kiradi?
2. Mustafo Bafoyevning “Poema”sidan eslab qolingani biror ohangni xirgoyi qilib bering.
3. Musiqada nechta kalit bor? Keng tarqalganlari qaysilar?
4. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini birgalikda kuylab, yaxshi o‘rganib oling.

## 3-dars. O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRINING ZARBLI CHOLG‘ULAR GURUHI

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining zarbli cholg‘ular guruhida — doira, nog‘ora, qayroq, safoyl kabi o‘zbek xalq cholg‘u sozlari bilan birga Ovro‘pa sozlari — litavralar, baraban, tarelka kabilarni ham uchratish mumkin.

Bastakorlar va orkestr uchun cholg‘ulashtiruvchi mutaxassislar, partiturasini yozilayotgan asar xarakteriga, obraziga qarab zarbli cholg‘ularni tanlashadi. Masalan: to‘yni aks ettiruvchi asarlarda nog‘ora, qo‘shiqalarda doira, xorazmcha raqsdan qayroq, uyg‘urcha kuyda safoyl ishlatilsa ayni muddao bo‘ladi. Ovro‘pa cholg‘ulari ham yangrayotgan musiqani yanada boyitadi.



*“Sinf fonotekasidan O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida To‘lqin Qurbonovning “Sevinch” asarini tinglang.*

### AZIZ USTOZLAR

*Sobir Boboyev musiqasi*

*To‘lqin she*

**♩** **Mayin**

Do -im a -ziz hur -ma -tin -giz, U -nut -may -miz

meh -na -tin -giz. Jo -na -jon -lar, meh -ri -bon -lar,

A -ziz, a -ziz us -toz -lar. us - toz -lar.  
 Bo - shi -miz -ni si -la -din -giz, Biz- ga oq yo'l  
 ti -la -din -giz. Jo -na -jon -lar, meh -ri -bon -lar.  
 A -ziz us- toz lar. lar.

Doim aziz hurmatingiz,  
Unutmaymiz mehnatingiz.

Naqarot:

Jonajonlar, mehribonlar,  
Aziz ustozlar.

Boshimizni siladingiz,  
Bizga oq yo'l tiladingiz.

Naqarot:

Sizlar bizning baxtimizsiz,  
Dillardagi axtimizsiz.

Naqarot:


Sizga izzat, sizga hurmat,  
Yosh qalblarda bo'ling har vaqt.

Naqarot:


## NOTA CHO'ZIMLARI VA ULARNING YOZILISHI



Musiqada notalar nomlanishi bilan birga, turli cho'zimga ham egadir. Ularning ko'rinishini quyidagicha tasvirlash mumkin:



“Sol” notasini misol qilib olib,  $\frac{4}{4}$  o'lchovda yozilsa bunday ko'rinadi:



Notadan keyin nuqta qo'yish bilan nota cho'zimini teng yarmiga uzaytirish mumkin:



Bastakor turli nota va nota cho'zimlarini tanlab, yangi ohang, ku yaratadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Zarbli cholg'ular guruhiga kiradigan qaysi sozlarni bilasiz va ularni qanday tanlab ishlatish mumkin?
2. To'liqin Qurbonovning “Sevinch” asarini tinglab, qaysi zarbli cholg'ular jarang qilganlab oldingiz?
3. Nota cho'zimleri va ularning yozilishi haqida nimalarni bilasiz?

#### **4-dars. O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRINING TORLI-KAMONLI CHOLG‘ULAR GURUHI**

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining torli-kamonli cholg‘ular guruhi-  
ga — I, II G‘ijjaklar, G‘ijjak — altlar, Qobuz — baslar, Qobuz — kontra-  
baslar kirgan va ular 5 ta nota chizig‘ini egallab, partituraning eng pastki  
qismidan joy olishgan. Sanab o‘tilgan cholg‘ular asarning asosiy kuy —  
ohangini ijro etish bilan birga yo‘ldosh ohanglar va usul — garmoniya  
ko‘rinishlarida jo‘r bo‘lishlari ham mumkin.



*Sinf fonotekasidan Farhod Alimovning “Shodiyona” asarini tin-  
glang.*



# OKTAVALAR NOMLANISHI VA KO'RINISHI

Diagram illustrating the naming and appearance of octaves on a piano keyboard. The keyboard is divided into sections labeled as follows:

- sub-kontr-oktava (Sub-contra-octave)
- kontr-oktava (Contra-octave)
- katta-oktava (Great octave)
- kichik oktava (Small octave)
- birinchi oktava (First octave)
- ikkinchi oktava (Second octave)
- uchinchi oktava (Third octave)
- to'rtinchi oktava (Fourth octave)
- beshinchi oktava (Fifth octave)

Below the keyboard, the corresponding musical notation is shown, including note names and octave designations (e.g., A<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>, C<sub>1</sub>, D<sub>1</sub>, E<sub>1</sub>, F<sub>1</sub>, G<sub>1</sub>, A<sub>1</sub>, H<sub>1</sub>, C, D, E, F, C<sub>A</sub>, H, c, d, e, f, g, a, h, c<sup>1</sup>, d<sup>1</sup>, e<sup>1</sup>, f<sup>1</sup>, g<sup>1</sup>, a<sup>1</sup>, h<sup>1</sup>, c<sup>2</sup>, d<sup>2</sup>, e<sup>2</sup>, f<sup>2</sup>, g<sup>2</sup>, a<sup>2</sup>, h<sup>2</sup>, c<sup>3</sup>, d<sup>3</sup>, e<sup>3</sup>, f<sup>3</sup>, g<sup>3</sup>, a<sup>3</sup>, h<sup>3</sup>, c<sup>4</sup>, d<sup>4</sup>, e<sup>4</sup>, f<sup>4</sup>, g<sup>4</sup>, a<sup>4</sup>, h<sup>4</sup>, c<sup>5</sup>, d<sup>5</sup>).

16

## TOVUSHQATORLAR VA OKTAVALAR



Tovushqatorlar — yuqoriga yoki pastga cholg'ularda chalinib, inson ovozi bilan kuylanadigan musiqiy tovushlarning pog'onali tizilmasidir. Masalan:



Tovushqatorlar mavjud hamma tovushlardan ham tuzilishi mumkin.

Oktavalar — 8 tadan musiqiy tovushlar pog'onasi bo'linmalarini o'z ichiga olgan bo'lib, 16-betda ko'rsatilganidek nomlanadi va nota qatorida ko'rinadi (Lotin harflari va raqamlar bilan qanday belgilanishiga ham e'tibor bering.):

### Savol va topshiriqlar

1. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining torli-kamonli cholg'ular guruhiga qanday sozlar kiritilgan?
2. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri deganda nimani tushunasiz?
3. Farhod Alimovning "Shodiyona" sida torli-kamonli cholg'ularning ishlatilishi va o'rni haqida hikoya qilib bering.
4. Tovushqatorlar va oktavalar haqida nimalarni bilasiz?
5. "Aziz ustozlar" qo'shig'ini birgalikda kuylab, yaxshi o'rganib oling.

### 5-dars. XOR SAN'ATI

Musiqi madaniyatida xor san'ati katta ahamiyatga egadir. Avvalambor "xor" o'zi nima ekanligini bilib olish zarur. Cholg'ular ijrosida ko'p ovozli musiqani tinglaganimizdek, xor vositasida ham ikki, uch va undan ortiq ovozli asarlarni kuylashga va tinglashga o'rganganmiz. Xor so'zini ikki xil ma'noda anglash mumkin. Birinchisi — kuylovchi jamoa bo'lsa, ikkinchisi — xor jamoasining ijro qilishiga mo'ljallab yozilgan musiqi asari.

Xorda 4 xil ovoz bor: xotin-qizlarga yoki bolalarga xos bo'lgan — soprano va alt ovozlari, erkaklarga xos bo'lgan — tenor va bas

ovozlardir. Sanab o‘tilgan ovozlardagi har bir kuylovchi o‘z vazifasini tushungan holda to‘g‘ri ijro etgandagina xorning mukammal, yoqimli va badiiy obrazli eshutilishiga imkon yaratiladi.



*Sinf fonotekasidan Botir Umidjonovning jo‘rsiz xorga moslashtirilgan “O‘zgancha” asarini tinglang.*

## TON VA YARIM TONLIKLAR




Royal, piano va akkordeonda oq va qora klavishlar bor. Agar yonma-yon kelgan oq klavish oralig‘ida qora klavish bo‘lmasa bu klavishlardan hosil bo‘ladigan tovushlar oralig‘i y a r i m t o n bo‘ladi. Bunday yarim tonlar MI-FA va SI-DO klavishlari oraliqlarida uchraydi.

Agar ikki oq klavish oralig‘ida qora klavish bo‘lsa, bu ikki oq klavish oralig‘i butun ton bo‘ladi.

Yarim tonlarni pianinodagi oq va qora klavishlardan ham tuzish mumkin. Masalan:

“DO” va uning yonidagi qora klavish oralig‘i yarim ton bo‘lganida “RE” va unga yonma-yon turgan pastki va yuqorigi qora klavishlar oralig‘i ham yarim tondan iborat. Yarim tonlardan tuzilgan tovushqator temperatsiya deb ataladi.

“DO” notasidan tuzilgan tovushqatorida ton va yarim tonliklar joylashishi quyidagicha:



Ushbu tovushqatorni unda keladigan ton va yarim tonliklariga e‘tibol berib, nota nomlari bilan aniq va yoqimli qilib kuylab ko‘ring.

## Savol va topshiriqlar

1. Xor deganda nimani tushunasiz va qanday ovoz turlarini bilasiz?
2. Xor san'ati rivojiga hissa qo'shgan va qo'shayotgan qanday jamoalar va bastakorlarni bilasiz?
3. Botir Umidjonovning "O'zganча"si qanday xor uchun yozilganini tinglab, bilib olgan bo'lsangiz ohangini kuylab bering.
4. Ton va yarim tonliklarni qanday ajratish yoki qurish mumkin?

### 6-dars. XOR IJROSI UCHUN XALQ QO'SHIQLARINI MOSLASHTIRISH

Professional bastakorlar xor uchun original asarlar yaratish bilan birga xalq qo'shiqlarini ham ko'p ovozli qilib xor ijrosiga moslashtirishgan. XX asrning 50-yillaridayoq Mutal Burhonovning jo'rsiz xorlari namuna darajasida e'tibor qozongan. Bu o'rinda uning "Yorlarim", "Endi sendek", "Bibigul", "Sari ko'xi baland" kabi asarlarini sanab o'tish lozim.

Keyinchalik M. Burhonovga yelkadosh bo'lib, ko'plab bastakorlar xalq qo'shiqlarini xor ijrosiga moslashtirdi. Bularga Sobir Boboyevning "Chaman ichra", Ikram Akbarovning "Qoyilman", Botir Umidjonovning "Qilpillama", Sheramat Yormatovning "Boychechak", "Chittigul", "Gullola", Mustafo Bafoyevning "Bahriya", "Mavrigi" kabi asarlarini misol keltirish mumkin.



*Sinf fonotekasidan bolalar xori uchun Sheramat Yormatov moslashtirgan "Boychechak" o'zbek xalq qo'shig'ini tinglang.*

# BOYCHECHAK

(jo'rsiz xor uchun qo'shiq)

O'zbek xalq qo'shig'i

Shermat Yormatov qayta ishlagan

***P***

(Qarsak chalinadi) Bo-la, bo-la, bo-la, bo-la,

*mf* Bo-la, bo-la, bo-la, bo-la, *f* bo-la, bo-la, bo-la, bo-la

*mf* *f*

bo-la, Boy- che- chak.

***ff***

(Qarsak chalinadi) 1. Boy- che- cha- gim  
2. Boy- che- cha- gim

boy- lan- di, qo- zon to'- la ay- ron- di.  
 hil- lo- li, ham-yon ham- yon til- lo- li.

Ay- ro- ning- dan ber ma- sang, qo- zon- to- vo- g'ing  
 Ham- ma bo- zor bir bo- zor at- rof la- ri

vay- ron- di. qat- tiq yer- dan qa- zi- lab chiq- qan  
 lo- la- zor. *mf*

boy- che- chak yum- shoq yer- dan  
*P*

yu- ma- lab chiq- qan boy- che- chak  
 che- chak

bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la, bo- la,

boy- che- chak Boy- che- chak.

Boy- che- chak- ni tut- di- lar sim yo- g'och- ga  
che- chak, che- chak, che-

os- di- lar boy- che- chak- ni tut- di- lar  
chak, che- chak, che- chak, che-



sim yo-g'och-ga os-di-lar qi-lich bi-lan  
*p*

chak, che-chak, Boy-  
*p*

chop-di-lar, bax-mal bi-lan yop-di-lar  
*p*

che-cha-gim. *ff*

qat-tiq yer-dan qa-zi-lab chiq-qan boy-che-chak  
*ff*

yum-shoq yer-dan yu-ma-lab chiq-qan  
*p*

*pp*

boy- che- chak      Bo- la, bo- la, bo- la, bo- la,

bo- la, bo- la, bo- la, bo- la,      boy- che- chak.

Boy- che- chak.      (Qarsak chalinadi)      che-chak.

### MUSIQADA LAD VA TONALLIK TUSHUNCHALARI



Musiqiy tovushlar turlicha baland-pastlikka ega ekanligini bilolmaysiz. Lad deb tovushqator pog'onalarining o'zaro ma'lum munosabatiga aytiladi.

Musiqada xalq lادلari bilan bir qatorda "Major" va "Minor" duraluvchi ladlar keng ommalashgan. Ular turlicha xarakterga ega. Agar major ladi bir oz kuchli, aniq va xush kayfiyatli bo'lsa, minor ladi aksincha, mayin, yumshoq va mungli sado beradi. Lad musiqiy asar xarakterini belgilashda ham muhim omildir.

Tuzilishlari: Major — 1 ton, 1 ton, 1/2 ton, 1, 1, 1, 1/2 ton  
Minor — 1 ton, 1/2 ton, 1, 1, 1/2, 1, 1 ton

Ajrata bilish asosan I—III bosqichlar oralig‘i tonlari yig‘indisiga qarab belgilanadi: majorda — ikki ton, minorda — bir yarim ton.

Tonallik deb major yoki minor ladini aniq bir notadan qurilishiga aytiladi. Masalan: Do — major, Lya — minor, Sol — major, Mi — minor va hokazolar.

### Savol va topshiriqlar

1. Xalq qo‘shiqlarini xor uchun moslashtirgan qaysi bastakorlarni bilasiz? Asarlarini sanab o‘ting.
2. Lad deb nimaga aytiladi?
3. Major va minorni bir-biridan qanday ajratish mumkin? Tuzilishi qanday bo‘ladi?
4. Tonallik deb nimaga aytiladi?

## 7-dars. XOR UCHUN PROFESSIONAL JANRLARDA IJOD QILISH

O‘zbekiston bastakorlari tomonidan xor uchun yaratilgan asarlarining janrlari xilma-xildir. Bular — qo‘shiq, syuita, qasida, vokal-simfonik poema, kantata, oratoriya, simfoniya kabilar bo‘lib, ushbu janrlarda ko‘plab asarlar yaratilganligi talaygina ilmiy maqolalarda kitob va darsliklarda e‘tirof etilgan.

Bastakorlardan M. Burhonovning “Davlat madhiyasi”, “Zarra gul”, “Go‘zal qizga” qo‘shiqlari, “Alisher Navoiyga qasida”si, M. Nasimovning “Dilbarim” vokal-simfonik syuitasi, S. Yudakovning “Mirzacho‘l” syuitasi, “Mening vatanim” kantatasi, S. Boboyevning “Xoral”i, “Aziz ustozlar” qo‘shig‘i, B. Umidjonovning “Qora soch”, “Alla”, “Oq kaptar” qo‘shiqlari, M. Bafoyevning “Buxoro haqida” oratoriyasi, “Xor uchun” simfoniyasi, Sh. Yormatovning “Maysa”, “O‘zbekiston tong yurtim”, “Sog‘lom avlod qo‘shig‘i”, “Nu‘rli avlod” kabi qo‘shiqlari, G‘. Qodirovning “Ona qo‘llari”, “Maktabjon — oftobjon” kantatasi, N. Norxo‘jayevning “Chamandagi gullarmiz”, “Zavqing soch,

qaldirg'och", "Gul terdi gullar", "Yaxshi bola" kabi qo'shiqlari, Mansurovning "Hur Respublikam", "Oq kaptarning parvozi", "Mingassalom, ustozlar!", "Bolarilar" qo'shiqlari, "Bolalar xori va orkestr uchun 1-simfoniyasi, R. Abdullayevning "Parvozdagi qushchalar" qo'shig'i, D. Omonullayevning "Etikcham", "Diloromning qo'shig'i" kabilar xalq uchun professional janrlarda ijod qilishning yorqin namunalari bo'lgan musiqa tarixida qoladi.



*Sinf fonotekasidan Darvin Omonullayevning G'.Komilov she'ri asosida yozilgan "Childirma chalay" qo'shig'ini tinglang.*

## HUR RESPUBLIKAM

Avaz Mansurov musiqasi

Xurshid Qayumov she'ri

O'rtacha tez

(chahaklar)


*mf*

Erk qu- yo- shi zi- yo- si- dan top- ding baxt id  
bol, Qar-dosh- lik- dan  
yo'- ling por-loq nur-li is-tiq -bol...

Naqarot:




O- na Va-tan gul- la- gay- san yash-na, top ka-mol:



Ko'r-kam di- yor O'z-be- kis- ton ser-qu-yosh o'l-kam,




Sen-ga sha-raf, sen-ga ol-qish Hur Res-pub -li- kam...



Xo- xo, xo- xo xo- xo xo-xo... (chapaklar)




Sen-ga sha-raf, sen-ga ol- qish,




Hur Res- pub-li- kam ser- qu- yosh o'l- kam...



lya-lya- lya, lya lya, lya-lya-lya, lya, lya,



lya-lya-lya- lya, lya lya lya lya lya, lya Sen-ga sha-raf



sen -ga ol- qish. Hur Res- pub- li- kam

ser- qu- yosh O'l- kam... O'z- be-kis -ton.

O'z- be - kis- ton, Sen- ga shon

A... A... A...

Erk quyoshi ziyosidan topding baxt iqbol,  
 Qardoshlikdan yo'ling porloq nurli istiqbol.  
 Ona-Vatan ko'rkidirsan yashna, top kamol

#### Naqarot:

Ko'rkam diyor O'zbekiston serquyosh o'lkam,  
 Senga sharaf, senga olqish Hur Respublikam.

Quvnoq yoshlik,  
 Yashnar bahor bog'lar bizniki.  
 Oq oltindan  
 Yaratilgan tog'lar bizniki.  
 Hur bolalik, saodatli  
 Chog'lar bizniki.

#### Naqarot:

Ko'rkam diyor O'zbekiston serquyosh o'lkam,  
 Senga sharaf, senga olqish Hur Respublikam.

#### Savol va topshiriqlar

1. Xor uchun yoziladigan asarlarning janrlarini sanab o'ting.
2. O'zbekiston bastakorlarining xor uchun yozgan asarlarini bilasizmi?
3. D. Omonullayevning "Childirma chalay" qo'shig'idan olgan taassurotlaringizni yozing.

## 8-dars. XOR JAMOALARINING TUZILISHI VA TURLARI

Har qanday badiiy ijrochilik jamoasi, o'rnatilgan qonun-qoidalarga asoslangan holda tuziladi. Xor jamoalari ham qoidalarga muvofiq bir necha turga bo'linadi. Faqat erkaklardan tuzilgan xor — erkaklar xori, faqat xotin-qizlardan tuzilgan xor — xotin-qizlar xori deb ataladi. Erkaklar va xotin-qizlardan tuzilgan xorga aralash xor deyiladi. Faqat bolalardan tuzilgan xor esa bolalar xori deb nomlanadi. Bolalar xori aralash xorda ham ishtirok etishi mumkin.

Xor jamoalari xor asarini orkestr yoki cholg'ular jo'rligida ijro qiladilar. Cholg'ular jo'rligisiz, faqat o'z ovozlari kuylovchi xor jamoasi kapella deyiladi. Kapella ijrosi uchun yozilgan xor asari a'kapella deb ataladi.



Xor qatnashchilarining soni 20-30 dan boshlab, ayrim hollarda 1000 va undan ortiq kishi bo'lishi ham mumkin. Kamer xor, Katta xor, Yig'ma xor deb asosan xor qatnashchilarining soniga qarab aytiladi.



Xor jamoalarining sahnaga chiqishi, shovqinsiz joylashishi va chiqib ketishini dars jarayonida o'quvchilar yordamida amalda ko'rsatib berish mumkin:

— sahnaga chiqayotganda avval 1-qator chiqib turib oladi, so'ng qolgan qatorlar joylashadi;

Sahnadan chiqib ketayotganda 1-qator bir qadam oldinga surilib, qolgan qatorlarni tartibli chiqib ketishini kutib turadi. Bu — sahna madaniyati deyiladi.



*Sinf fonotekasidan "Oq kaptar" — bolalar xori uchun (B. Umidjonov musiqasi),*

*"Go'zal qizga" — aralash xor uchun (M. Burhonov musiqasi),*

*"Alla" — xotin-qizlar xori uchun (B. Umidjonov musiqasi) asarlarini tinglang va tahlil qiling.*

## MUSIQADA ALTERATSIYA BELGILARI



Musiqada alteratsiya belgilari doimo uchraydi. Ularning ko'rinishi, yozilishi va ishlatilishini yaxshi bilib olish zarur:

**b** (bemol) — tovushni yarim ton pasaytirish belgisi;

**♯** (diyez) — tovushni yarim ton yuqori ko'tarish belgisi;

**♮** (bekar) — bemol yoki diyezni rad qilish belgisidir.

Alteratsiya belgilari kalitlardan keyin yoki notalar oldiga asar tonaligi va ohang o'zgarishiga qarab qo'yiladi.

## Savol va topshiriqlar

1. Xor jamoalarining tuzilishi, turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Sahnada madaniyati xor ijrochiligiga ham taalluqlimi?
3. Tinglangan qo'shiqlar qanday jamoalar ijrosida yozib olingan?
4. "Paxta qo'shig'i"da qanday alteratsiya belgilari bor? Birgalikda kuylang.
5. Qo'shiq qaysi tonallikda yozilgan?
6. Alteratsiya belgilarini ta'riflab bering.
7. Keyingi darsgacha 1-chorakda musiqa savodidan o'rgangan bilimlaringizni qisqacha bayon tarzida yozib keling.

## 9-dars. XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI VA XOR UCHUN O‘ZBEKISTON BASTAKORLARI IJODINING AHAMIYATI

Bugungi kunda O‘zbekistonda xalq cholg‘ularidan tuzilgan bir talay orkestrlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bular — To‘xtasin Jalilov nomi-dagi Davlat orkestri, O‘zdavteleradio kompaniyasi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi orkestr, “So‘g‘diyona” kamer orkestri, Konservatoriya, Madaniyat instituti va Respublika musiqa, san‘at bilim yurtlari talaba-laridan tuzilgan orkestrlardir.

Respublikamizdagi mavjud xor jamoalari va ular uchun yaratilgan asarlar, bastakorlar ijodi haqidagi ma‘lumotlarni siz o‘tgan darslarimizda o‘zlashtirib olgansiz.

Hozirgi davrda ham sanab o‘tilgan jamoalar uchun bastakorlar yangi-yangi ijod yo‘nalishlarida ko‘plab asarlar yaratib berishmoqda. Ular har kuni radio va televideniye to‘lqinlarida, konsert zallarida yangrab turadi.

Musiqa madaniyatimizning yanada rivojlanib borishida xalq cholg‘ulari orkestri va xor uchun O‘zbekiston bastakorlarining ijodi katta ahamiyat-ga ega.



*Sinf fonotekasidan M. Bafoyevning “Naqshlar” (dutor va orkestr uchun) asarini, S. Yudakovning “Mirzacho‘l” vokal-simfonik syuita-sidan “Terimchilar qo‘shig‘i” deb nomlangan qismini tinglang.*

### PARTITURALAR VA KLAVIRLAR



Har qanday musiqa ohangi asar sifatida notaga tushirilgan holda, uning ko‘rinishi partitura yoki klavir shaklida bo‘ladi.

Partitura — ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan asarlar-ning nota yozuvidir. Bunday jamoalarning har bir qatnashchisi bir-galikda ijro etadigan ohang yo‘llari, partiturada qoidalar bo‘yicha ost-ust qilib ko‘p qatorli maxsus nota daftariga joylashtirilgan bo‘ladi.

Klavir esa — shu ansambl, xor, orkestr yoki sahna asarlari mu-siqasini ixcham shaklda, ovoz va fortepiano ijrosi uchun mo‘ljallab yozilgan nota daftaridagi yoki to‘plamlarda chop etilgan ko‘rinishidir.

Maktabingiz musiqa sinfi kutubxonasidagi mavjud partitura va klavirlar bilan tanishib, fikr almashing.

### **I chorak yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. O'zbekiston Davlat madhiyasining mualliflari kimlar?
2. Madhiya musiqasining kuyi, ohangi qanday? (Tantanavor marsh tempidami? Kuychanmi yo g'amginmi?)
3. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va xorlar tuzilishlari haqida gapirib bering.
4. Ton va yarim tonliklar haqida gapiring.
5. "Aziz ustozlar" qo'shig'ining mualliflari kimlar? Qo'shiq mazmunini gapiring.
6. Major, minor ladlari va ularning tonalliklarini taqqoslang.
7. "Hur Respublikam" qo'shig'ining mualliflari kimlar? Qo'shiq ohangi qanday? Mazmunichi?
8. Musiqada qancha kalit bor? Keng tarqalganlari qaysilar?
9. I chorak davomida tinglagan asarlaringizni sanab o'ting.

## II CHORAK

---

### SIMFONIK ORKESTR. MUSIQADA VOKAL-SIMFONIK JANRLAR

#### **1-dars. SIMFONIK ORKESTR VA UNING TORLI — KAMONLI CHOLG‘ULAR GURUHI**

Simfonik orkestr — orkestr turlari ichida butun dunyoga keng tarqalganligi bilan barchaga ma'lum. Uning tarkibiga kiradigan cholg'ular va ijro yo'nalishlari asosan XVIII asrda shakllangan. Nemis bastakori — Lyudvig Van Betxoven, rus bastakori Pyotr Ilich Chaykovskiy, o'zbek bastakori Mirsodiq Tojiyevlar simfonik orkestr uchun yuksak ijod namunalarini yaratib, simfoniya, konsert, poema, uvertyura kabi janrlardagi asarlarni avlodlarga qoldirishdi. Bu orkestr uchun ko'plab yangi bastakorlar ham namunali asarlar yaratib kelmoqda.

Simfonik orkestrda cholg'ular 4 guruhga bo'linadi va partiturada yuqoridan pastga quyidagicha joylanadi:

- torli- kamonli cholg'ular;
- yog'och damli cholg'ular;
- mis damli cholg'ular;
- urma-zarbli cholg'ular.

Torli-kamonli cholg'ular guruhi — orkestrning eng asosiy guruhi hisoblanadi. Bu guruhga I, II skripkalar, alt, violonchel, kontra-baslar kiradi va ular 5 ta nota qatorlarini egallab, partituralarning eng pastki qismidan joy olishgan. Sanab o'tilgan cholg'ular asarning asosiy kuy-ohangini ijro etish bilan birga yo'ldosh ohanglar va usul-garmoniya ko'rinishlarida jo'r bo'lishlari ham mumkin.



Simfonik orkestrning torli-kamonli cholg'ulari fotosi  
(skripka, alt, violonchel, kontrabas).





Sinfonotekasidan To 'lqin Qurbonovning "To 'yona", Mirxalil Mahmudovning "Muxammas va ufor" asarlarini tinglang.

## OLTIN KUZ QO'SHIG'I

Avaz Mansurov musiqasi

Normurod Narzullayev she'ri

### Quvnoq



Ko'r- kam o'l- kam sha- mo- li,



shod-lik-dan quv-nar yu- rak.




E - sar me - zon sha-mo- li,



kuz-dan be-rib u da- rak.



Kuz-dan be-rib da-rak.



Til -lo rang -li yap-roq- lar

yer-ga qa-lin to' -ki-lar.

Qay- nar ti -niq bu-loq -lar, Naqarot:

Qalb-da or-zum u-sha -lar. Ol -tin ku-

zim, ol- tin kuz,

xush ke-lib -san o'l- kam -ga.

Baxt qu -yo -shi cha-raq -lab,

of- tob teg -di yel-kam -ga,

of- tob teg -di yel-kam -ga.





Ko'rkam o'lkam jamoli,  
Shodlikdan quvna yurak.  
Esar mezon shamoli,  
Kuzdan berib u darak.

Bog'da ter to'kar bog'bon,  
Hosilini teradi.  
Dalada bobodehqon,  
G'allasini o'radi.

Tillo rangli yaproqlar  
Yerga qalin to'shalar.  
Qaynar tiniq buloqlar,  
Qallda orzum ushalar.

To'kin bo'lsa dasturxon,  
Kuy-qo'shiq ham yarashar.  
Bulbullar sho'x g'azalxon,  
Tinch bo'stonda sayrashar.


Naqarot:

Naqarot:

Oltin kuzim, oltin kuz,  
Xush kelibsan o'lkamga.  
Baxt quyoshi charaqlab,  
Oftob tegdi yelkamga.

Oltin kuzim, oltin kuz,  
Xush kelibsan o'lkamga.  
Baxt quyoshi charaqlab,  
Oftob tegdi yelkamga.

### MUSIQADA DINAMIK BELGILAR

 Kuy-ohang, qo'shiqlar ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obrazni yanada boyitib tinglovchilarga eshittirish uchun musiqada dinamik belgilar qo'llaniladi. Tovush qanday kengaytirilishini ko'rsatuvchi, italyanchadan olingan bu belgilar nomlanishini va ma'nosini butun dunyo xalqlari bir xil tushunadilar. Dinamik belgilar quyidagicha yoziladi va talaffuz qilinadi:

*P* (piano) — kuchsiz, ohista;


**PP** (pianissimo) — juda kuchsiz;

**mp** (metso piano) — kuchsizroq;

**f** (forte) — kuchli, qattiq;

**ff** (fortissimo) — juda kuchli;

**mf** (metse forte) — kuchliroq;

 (krishchendo) — kuchaytirib borish, qisqa italyanча yozilishi — “cresc”.

 (diminuendo) — kuchsizlantirib borish, qisqa italyanча yozilishi — “dim”.

### Savol va topshiriqlar

1. Simfonik orkestr va uning tarkibiga kiruvchi cholg‘u guruhlar haqida gapirib bering.
2. Simfonik orkestr uchun yoziladigan asarlar janrlarini bilasizmi?
3. Qaysi bastakorlar simfonik orkestr uchun yuksak ijod namunalarini yaratishgan?
4. Torli-kamonli cholg‘ular guruhi qaysi cholg‘ulardan tashkil topgan? Ta’riflab bering.
5. Tinglangan asarlar haqida taassurotlaringiz qanday?
6. “Oltin kuz” qo‘shig‘ini o‘rganib olgan bo‘lsangiz, shu qo‘shiqning kuyini hiroy qilib bering.
7. Musiqada uchraydigan dinamik belgilarni so‘zlab, tushuntirib bering.

### 2-dars. SIMFONIK ORKESTRNING YOG‘OCH VA MIS DAMLI CHOLG‘ULAR GURUHI

Dunyoda puflab chalinadigan cholg‘ularning tu‘ri ko‘p. Simfonik orkestrga kiritilgan bunday cholg‘ular ikki turga — yog‘och va mis damli cholg‘ularga ajratiladi.

Yog‘och damli cholg‘ular guruhiga — fleytalar, goboylar, klarnetlar va fagotlar kiradi. Bu guruh ijrosi uchun musiqa partituraning eng yuqoridagi nota yo‘llariga yoziladi.

Mis damli cholg‘ular guruhiga — valtornalar (ko‘pincha 4 ta), trubalar (2 ta), trombonlar (3 ta) va tuba (1 ta) kiradi.



yogoch damli cholg'ular fotosi.



Mis damli cholg'ular fotosi.



*Sinf fonotekasidan Mirsodiq Tojiyevning 3-simfoniyasidan parcha tinglang.*

### NOTA CHO'ZIMLARINI UZAYTIRUVCHI BELGILAR



Ohanglar rang-barang chiqishi uchun bastakorlar quyidagi ayrim notalar cho'zimini "nuqtalar" va "ligalar" (notalarni ulovchi chiziq) yordamida uzaytiradi.


Nuqtalar (.) yordamida nota teng yarmiga uzayadi; yanada tushunarli bo'lishi uchun sonlar bilan ko'rsatish ham mumkin:

$$\circ (4 \text{ chorak}) - \circ. (6 \text{ chorak}) = 4+2=6$$

$$\text{♪} (2 \text{ chorak}) - \text{♪} (3 \text{ chorak}) = 2+1=3$$

$$\text{♪} (1 \text{ chorak}) - \text{♪} (3 \text{ nimchorak}) = 1+0,5=1,5$$

Liga yordamida esa nota cho'zimini har qancha uzaytirsam bo'ladi:



Bunday hollarda nota tovushini 1 nafasda kuylash yoki biror cholg'uda uzluksiz ijro etib turish zarur.

### Savol va topshiriqlar

1. Simfonik orkestr tarkibiga kiruvchi yog'och va mis damli cholg'ular guruhlarini ta'riflab bering.
2. Mirsodiq Tojiyevning 3-simfoniyasidan tinglangan parchada yog'och va mis damli cholg'ularning o'rni qanday?
3. O'rgangan qo'shiqni sherik tanlab, birga kuylab bering. Shu qo'shiq mualliflarini bilasizmi?
4. Nota cho'zimlarini uzaytiruvchi qanday belgilar bor va ular nima uchun ishlatiladi?
5. Sinfda mavjud nota to'plamlaridan birini varaqlab, nuqta va liga ishlatilgan joylarini ko'rsating.

### 3-dars. SIMFONIK ORKESTRNING ZARBLI CHOLG'ULAR GURUHI

Simfonik orkestrning zarbli cholg'ular guruhida 20 dan ortiq butun dunyoga tarqalgan urma-zarbli cholg'ular ishlatilishi mumkin. Lekin Litavralar, baraban, tarelka kabi cholg'ular hamisha ishlatiladi.



litavra, baraban, tarelkalar fotosi.

Musiqa o'zbekona yangrashi uchun O'zbekiston bastakorlari nog'ora va doiralarni mohirona ishlatishlari qulog'imizga singib ketgan. Bu ohanglarda o'zgacha zavq bor.



*Sinfonotekasidan Avaz Mansurovning "Navro'z bayramiga!" uvertyrasini tinglang.*

## CHUMOLI

Alisher Rasulov musiqasi

R. Is'hoqov she'i

Chu- mo- li chu- mo- li -- Char-chash ni- ma bil- may- di.

Chu- mo- li, chu- mo- li- Meh- nat qi- lib tin- may- di.

Don yi- g'ib tol- mas ish- dan Chu- mo- li, chu- mo- li, Mux- toj bo' l- may- di qish- da- Chu- mo- li, chu- mo- li. Hur- mat- la- shar bir- bi- rin, Ha- lol- lik no- ni shi- rin.

Naqarot:

Chumoli, chumoli —  
 Charchash nima bilmaydi.  
 Chumoli, chumoli —  
 Mehnat qilib tinmaydi.

Don yig'ib tolmas ishdan —  
 Chumoli, chumoli.  
 Muxtoj bo'lmaydi qishda —  
 Chumoli, chumoli.

Hurmatlashar bir-birin,  
 Halollik noni shirin.

Naqarot:

Ish zavqin sezar bari —  
 Chumoli, chumoli.  
 Birlashib o'zar bari —  
 Chumoli, chumoli.  
 Hurmatlashar bir-birin,  
 Halollik noni shirin.

## MUSIQADA PAUZALAR

Pauzalar — jim turish belgilaridir.

Notalar kabi pauzalar ham turli cho‘zimda bo‘ladi.


Masalan:



— butun notaga teng miqdorda pauza;



— yarim notaga teng miqdorda pauza;



va hokazo...

chorak

nimchorak

16 talik

Pauzalarga ham uzaytirish belgilaridan (.) nuqta qo‘yilishi mumkin.



### Savol va topshiriqlar

1. Simfonik orkestrning zarbli cholg‘ular guruhida qancha cholg‘u ishlatilishi mumkin? Doimo ishlatiladiganlari qaysilar?
2. Simfonik musiqa yanada o‘zbekona yangrashi uchun nog‘ora va doira ishlatilishiga qanday qaraysiz?
3. Avaz Mansurovning “Navro‘z bayramiga!” uvertyrasini tinglab, olgan taassurotlaringizni so‘zlab bering.
4. “Chumoli” qo‘shig‘ining mualliflari kimlar?
5. Pauzalar deganda nimani tushinasiz? Qanday turlari bo‘ladi? Ularni yozib ko‘rsating.

#### 4-dars. INTERVALLAR HAQIDA TUSHUNCHALAR

“Interval” soʻzini, intervallar nomlarini boshlangʻich sinf musiqa darslarida eshitgan boʻlishingiz mumkin. Lekin 5-sinfda intervallar haqida toʻliq maʼlumotga ega boʻlasiz.

“Interval” — bu lotinchadan olingan soʻz boʻlib, oraliq yoki masofa maʼnosini anglatadi. Musiqada esa ikki tovush oraliqʻini bildiradi. Musiqada 8 ta asosiy intervallar bor. Bular — prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima va oktavalardir.

Ularning koʻrinishi va raqamlar bilan belgilanishi quyidagicha:





prima (1)      sekunda (2)      tersiya (3)      kvarta (4)      kvinta (5)

seksta (6)      septima (7)      oktava (8)

Har bir asosiy intervalning aniq ton oʻlchovi bor. Primada — 0, sekundada — 1 ton, tersiyada — 2 ton, kvartada — 2,5 ton, kvintada — 3,5 ton, sekstada — 4,5 ton, septimada — 5,5 ton, oktavada — 6 ton.

Bunday intervallarni har qanday tovushdan yuqoriga yoki pastga qurish mumkin. Masalan: “re”, “fa”, “sol” notalaridan kvartalar (2,5) qurib koʻramiz:

yuqoriga — 

pastga — 



*Sinf fonotekasidan L. Betxovenning 5-Simfoniyasidan parchalar tinglang.*



## Savol va topshiriqlar

1. Tinglangan asar Sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Intervallar haqida bilganlaringizni gapirib bering?
3. “Mi”, “Iya” notalaridan yuqoriga va pastga kvintalar quring.
4. O‘zingizga sherik tanlab “Chumoli” qo‘shig‘ini kuylab bering.

### 5-dars. MUSIQADA VOKAL-SIMFONIK JANRLAR

Musiqqa san'atida janrlar ko'pligini yaxshi bilasiz va sanab bera olasiz. Vokal-simfonik janrlari ham keng tarqalgan.

“Vokal-simfonik” deganda nimani tushunishimiz lozim?

“Vokal” – bu ashula aytishni anglatrsa, “Simfonik” degani – simfonik orkestr jo‘r bo‘lishni bildiradi. Ashulani yakkaxon ham, xor ham aytishi mumkin. Bunday ko‘rinishda yaratilib, ijro etilayotgan asarlarining janrlarini aniq belgilash mumkin. Bular vokal simfonik syuita, poema, qasida, kantata yoki oratoriyalarga ajratiladi.



*Sinf fonotekasidan S. Yudakovning “Mirzacho‘l” vokal-simfonik syuitasini tinglang.*

### O‘ZBEKISTONIM

Sharif Ramazonov musiqasi

Fayzi Shohismoil she'ri

**March**

Ko'r-kam di-yor- san bag'- ri ba- hor- san

keng pax-ta-zor- san, gul-la-gin, O'z-be- kis-to- nim! Jo-nay,

keng pax-ta-zor- san, gul-la-gin, O'z-be- kis- to- nim!



Pax-tang ka-bi oq, iq-bo-ling por-loq,  
 pax-tang ka-bi oq, iq-bo-ling por-loq  
 Sharq uz-ra ma-yoq pax-ta-kor, O'z-be-kis-to-  
 nim! Sharq uz-ra ma-yoq, pax-ta-kor, O'z-be-kis-to-  
 nim! Jon, O'z-be-kis-to-nim. O'z-be-kis-to-nim!

Ko'rkam diyorsan,  
 Bag'ri bahorsan,  
 Keng paxtazorsan,  
 Gullagin, O'zbekistonim!

Naqarot:

Paxtang kabi oq,  
 Iqboling porloq,  
 Sharq uzra mayoq  
 Paxtakor, O'zbekistonim!

Tog'laringda kon —  
 Ma'dangga makon,  
 Senga fido jon,  
 Gullagin, O'zbekistonim!

Naqarot:

Sen ona yurtim  
 Durdona yurtim,  
 Mardona yurtim —  
 Gullagin, O'zbekistonim!

Naqarot:

## SOF, KATTA VA KICHIK INTERVALLAR



Nota yozilgan yoki yangrayotgan ikki tovush oralig'i — sof, katta va kichik intervallarga ajratiladi.

Sof intervallarga — prima (1 ton), kvarta (2,5 ton), kvinta (3,5 ton), oktava (6 ton) intervallari kiradi.

Quyidagi intervallarning katta va kichik turlari bo'ladi:

interval nomi	ton o'lchovlari	
	katta	kichik
Sekunda	1 ton	0,5 ton
Tersiya	2 ton	1,5 ton
Seksta	4,5 ton	4 ton
Septima	5,5 ton	5 ton

Katta intervallarni kichik intervallarga, kichik intervallarni esa katta intervallarga o'zgartirish uchun alteratsiya belgilaridan foydalaniladi. Masalan:

A musical staff with a treble clef showing four intervals between notes. The first interval is a whole note (katta 2), the second is a half note (kichik 2), the third is a whole note (katta 6), and the fourth is a half note (kichik 6). The text "va hokazo..." follows the staff.

### Savol va topshiriqlar

1. Musiqa san'ati janrlarini eslang va "vokal-simfonik" yo'nalishidagi janrlarni sanab, ularni qanday ajrata olishingizni aytib bering.
2. S. Yudakovning "Mirzacho'i" vokal-simfonik syuitasini tinglab, qanday taassurotga ega bo'ldingiz?
3. Sof, katta va kichik intervallar haqidagi bilimlaringizni do'stlaringizga gapirib, tushuntirib bering.
4. "O'zbekistonim" qo'shig'ining mualliflari kimlar? Qo'shichni xirgoyi qiling.



## 6-dars. QASIDA JANRI


Badiiy soʻz ustasi, yakkaxonlar, xor va orkestr uchun yaratilgan asarlarda biror bir ulugʻ siymo ulugʻlansa yoki Vatanni madh etib, joʻshib kuylansa, ularni “Qasida” janrida yozilgan, deb belgilash mumkin. Bastakor va shoir hamkorlikda yaratilajak yangi asar librettosini, yaʼni mavzuni toʻla ochib beruvchi soʻzlarni va sheʼriy matnni oldindan kelishib yozib olishadi. Soʻng bastakor bu libretto asosida yaxlit musiqa asari — qasida yaratishga kirishadi. Qasidalar koʻproq bayram va tantanalarda ijro etiladi.



*Sinf fonotekasidan M. Burhonovning A. Oripov sheʼriy librettosiga yozgan “Alisher Navoiyga qasida”sini tinglang.*

### MUSIQADA QAYTARISH VA TINISH BELGILARI

Musiqada qaytarish belgisi — repriza, deb nomlanadi. Asarning maʼlum bir boʻlagini albatta qaytarish lozim boʻlsa, oʻsha boʻlak boshlanishiga repriza belgisi ochilib () tugallangan joyida yopiladi (). Repriza belgisi asar notasining behuda koʻchirilib, choʻzilib ketishiga yoʻl qoʻymaydi.

Musiqada ham tinish belgisi uchraydi. Uning nomi — fermata () deyiladi.

Fermata — nota, pauza yoki takt chizigʻi ustiga qoʻyilishi mumkin. Bu belgi bor joyda bir nafas toʻxtash bilan ijro etilayotgan asarga jilo beriladi. Fermatalar oʻzimizning katta ashulalarda ham koʻp ishlatiladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Qanday asarlarni “Qasida” janrida yozilgan, deb belgilash mumkin?
2. Tinglangan “Alisher Navoiyga qasida” Sizda qanday taassurot qoldirdi?
3. Musiqada uchraydigan qaytarish va tinish belgilari haqida gapirib berib, sinfda mavjud notalarni varaqlab, shu belgilarni koʻrsating.
4. “Oʻzbekistonim” qoʻshigʻini qaytarib, sinfdoshlar bilan birgalikda kuylang.

## 7-dars. KANTATA VA ORATORIYALAR

Vokal-simfonik musiqa yoʻnalishida **K a n t a t a** janri ham keng tarqalgan. Bu janrda yaratilgan asarlarda hozirgi davr, yosh tarixning muhim voqealari aks ettirilgan. Kantatalar tantanali, lirik va epik xarakterda yozilib, bir necha qismdan iborat boʻlishi mumkin. Tugallangan maʼnoga ega qismlarini alohida-alohida ijro etsa ham boʻladi.

**Oratoriya** — vokal-simfonik musiqaning eng yirik janri boʻlib, odatda dramatik mavzuda yoziladi. Dramatik voqealar soʻz va musiqada sezilib tursa-da, kuylayotgan yakkaxonlar va xor sahnada harakat qilmaydi. Oratoriyaning kantatadan farqi uning hajmi jihatidan kattaligi, epik-dramatik xarakterda boʻlishi va mavzuining kengligidadir.



*Sinf fonotekasidan S. Yudakovning “Mening Vatanim” kantatasidan qismlar tinglang.*

### II chorak yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Simfonik orkestr nima? Uning uchun yuksak ijod namunalarini yaratgan qaysi bastakorlarni bilasiz?
2. Torli va kamonli cholgʻular guruhi qaysi cholgʻulardan tashkil topgan?
3. Dinamik belgilar nima uchun qoʻllaniladi, qanday yoziladi va talaffuz qilinadi?
4. Puflab chalinadigan cholgʻular necha turga boʻlinadi va unga qaysi cholgʻular kiradi?
5. Nota choʻzimlarini uzaytiruvchi belgilar haqida gapirib bering.
6. Simfonik orkestrning zarbli cholgʻular guruhida qancha cholgʻu ishlatiladi va ular qaysi cholgʻular?
7. “Navroʻz bayramiga” uvertyurasining bastakori kim va asar haqida gapirib bering.
8. L. Betxovenning 5-simfoniyasini tinglab, olgan taassurotlaringiz haqida gapiring.
9. “Oltin kuz”, “Chumoli”, “Oʻzbekistonim qoʻshiqlarining mualliflari kimlar?”
10. Qasida janri haqida va shu janrda tinglangan asar haqida soʻzlab bering.
11. Kantata va oratoriyalar qanday xarakterda yozilishi mumkin?
12. “Mening Vatanim” kantatasining bastakori kim?
13. Oʻrgangan qoʻshiqlaringizni kichik vokal guruhlariga boʻlingan holda kuylab, sinf koʻrik-tanlovini oʻtkazing.

### III CHORAK

---

## SAHNAVİY MUSIQA ASARLARI — BALET VA RAQS SAN'ATI, MUSIQALI DRAMA VA KOMEDIYA, BOLALAR UCHUN MUSIQALI ERTAK — TOMOSHALAR

3 Dab SR

### 1-dars. SAHNAVİY MUSIQA ASARLARI

Sahnaviy musiqa asarlariga — Opera, Balet, Musiqali drama va komediya, Operetta, Bolalar uchun yaratilgan musiqali ertak — tomoshalar kiradi. Vatanimizning har bir farzandi yuqorida nomlari sanab oʻtilgan janrlarda yozilgan sara asarlarni bilishi, tinglab, tomosha qilib, ularni bir-biridan ajrata olishi zarur. Bunday janrlarda yaratilgan asarlarni sahnalashtirish uchun butun dunyoda boʻlgani kabi bizning respublikamizda ham maxsus teatr-tomoshagohlar mavjud. Masalan, A. Navoiy





nomidagi Katta Akademik opera va balet teatri, Muqimiy nomli Respublika davlat musiqali teatri, Viloyat va shaharlarimizdagi Davlat teatlari, O'zbek va rus yosh tomoshabinlar teatlari, Respublika va viloyat qo'g'irchoq teatlari.



*Sinf fonotekasidan opera, balet, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalaridan parchalar tinglab, misollar keltiring.*

## SUMALAK

*Shermat Yermatov* musiqasi

*To'xtamurod Bahromov* she'ri

Ohista

Tar-nov-lar-da su-ma-lak, su-ma-lak, su-ma-lak, su-ma-lak.  
lak. Suv to-ma-di chak-chak,  
Chak-chak, chak-chak, chak-chak-chak.  
Su-ma-lak ji-lo-la-nar,  
Dur yo-g'ar,  
Of-tob -da til-lo-la-nar,



Nur yo - g'ar.  
tugallash ushun  
Chak - chak, chak - chak, chak - chak - chak!

Tarnovlarda sumalak,  
Sumalak, sumalak, sumalak.  
Suv tomadi chak-chak,  
Chak-chak, chak-chak,  
chak-chak-chak.

Sumalak jilolanar,  
Dur yog'ar,  
Oftobda tillolanar,  
Nur yog'ar.

Tomchilar billur rangda,  
Qarang, qarang, qaranga,  
Ko'z yoshin qilmas kanda,  
Attang, attang, attanga.

Qishni kuzatsa kerak,  
Sumalak,  
Bahordan berib darak...  
Chak-chak, chak-chak,  
chak-chak-chak.

### RITM (USUL)

Ritm — bu ma'lum bir kuy musiqiy tovushlarining uzun-qisqa bo'lib almashinib turishidir. Har qanday kuy yoki qo'shiq ohangining o'z ritmi bor. Masalan, hammamiz yaxshi biladigan "Chamanda gul" xalq qo'shig'ining ritmi quyidagicha:

O'zbek kuy va raqslarining, ayniqsa, doiramizning usullari rang-barang va murakkabdir.

### . Savol va topshiriqlar

1. Sahnaviy musiqa asarlariga qanday tomoshalar kiradi?
2. Respublikamizdagi mavjud teatrlarni sanab bera olasizmi? Qaysilariga borgansiz yoki borib tomosha qilishni xohlaysiz?
3. Tinglagan parchalaringiz bir-biridan farq qiladimi? So'zlab bering.
4. "Sumalak" qo'shig'ining mualliflari kimlar? Xirgoyi qilib bering.
5. Ritm haqida bilganlaringizni gapiring.

## 2-dars. BALET SAN'ATI

Balet — musiqa va raqs harakatlari orqali obrazlar, voqealar yaratish san'atidir. Balet asarini dramatik mavzu, raqs, imo-ishora, nafis harakatlar, musiqa, sahna bezaklari va kiyim-kechaklar tashkil qiladi.

Butun dunyoga mashhur bo'lib ketgan — “Oqqush ko'li”, “Yong'oqchaqar” (“Shelkunchik”) va “Uyqudagi go'zal” baletlarini XIX asrda yashagan rus bastakori Pyotr Ilich Chaykovskiy yaratgan. Bu baletlarni bizning xalqimiz ham yaxshi biladi, sevib tomosha qiladi. XX asrda yaratilgan “Gayane”, “Spartak” (Aram Xachaturyan), “Boqchasaroy fontani” (B. Asafyev), “Romeo va Juletta” (S. Prokofyev) baletlarini ham ko'pchilik biladi.



Baletdan foto



*Sinf fonotekasidan P. Chaykovskiyning “Oqqush ko'li” baletidan parchalar tinglang.*


## TAKT VA TAKT CHIZIG'I



Har qanday musiqa yangrayotganda kuchli va kuchsiz hissalar almashinib keladi. Bu, ayniqsa, marshlar ohangida aniq bilinib turadi:

1, 2, 3, 4 / 1, 2, 3, 4 va hokazo...

Shu 1-hissadan keyingi 1-hissagacha bo'lgan oraliq musiqada takt deyiladi. Taktlarni bir-biridan ajratib turish uchun 1-kuchli hissa oldiga 5 ta nota chiziqlarini birlashtiruvchi tik chiziqcha tushiriladi, bu — takt chizig'i deyiladi. Masalan:



### Savol va topshiriqlar

1. Balet san'atini ta'riflab bering.
2. Pyotr Chaykovskiy yaratgan va yana boshqa hamma yaxshi biladigan baletlarning nomlarini bilasizmi?
3. "Oqqush ko'li"ni tinglaganingizda sizga yoqqan ohangni xirgoyi qilib bering.
4. Takt va takt chizig'i haqida nima deya olasiz?
5. O'zingizga sherik tanlab, "Sumalak" qo'shig'ini birgalikda kuylab bering.

### 3-dars. O'ZBEK BALETLARI

Balet san'ati O'zbekistonda ham rivoj topgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab "Paxta" (Roslavets), "Orzu" (I. Akbarov), "Sevgi tumori" (M. Ashrafiy), "Tanovar" (A. Kozlovskiy) kabi baletlar yaratildi. 80-yillarda o'zbek bastakori Ulug'bek Musayev tomonidan yaratilgan "Hind dostoni" va "To'maris", Avaz Mansurovning 1 pardali "Sharq afsonasi" baletlari el og'ziga tushdi. 90-yillarda esa Mustafafo Bafoyev "Ulug'bek burji" va "Nodira" milliy raqs uslubidagi baletlarini yaratdi.

Balet san'atini barcha xalqlar birday tushunadi va sevib tomosha qiladi. Bundan keyin ham yuksak namunada o'zbek baletlari yaratilib, butun dunyoga dovrug'i ketadi.



Baletdan foto



*Sinf videotekasidan Ulug'bek Musayevning "To'maris" baletidan parchalar tomosha qiling yoki fonotekadan Avaz Mansurovning "Sharq afsonasi" baletidan musiqa tinglang.*

**OPPOQ QISHEY, OPPOQ QISH**

Anatoliy Varelas musiqasi,

Po'lat Mo'min she'ri

**Mayin, ohista**



1. Dam ol-moq-da da - la - lar, keng vo-diy-lar,



da - ra - lar. Fa-s(i)l zav-qi at-rof- ga

Naqarot:



qo'-shiq bo'-lib ta- ra- lar. Op-poq qi-shey,



op-poq qish Eh qor-la-ri yum-shoq qish.




Cha-na, kon-ki o'y-nat gan quv-noq qi-shey,



quv-noq qish. Yakun Tar-nov-lar-da su-ma-lak,




ko'l-lar oy- na yax- ma- lak. Ay-ting, ay-ting



bo'l- ma - sin, Hech kim yo'l-da charx-pa- lak.



Op-poq qi-shey, op-poq qish Eh qor-la-ri



yum-shoq qish Cha-na, kon-ki o'y-nat-gan



quv-noq qi-shey, quv-noq qish.

Dam olmoqda dalalar,  
Keng vodiylar daralar.  
Fasl zavqi atrofga,  
Qo'shiq bo'lib taralar.

Tarnovlarda sumalak,  
Ko'llar oyna yaxmalak.  
Ayting, ayting bo'lmasin,  
Hech kim yo'lda charxpalak.

Naqarot:

Naqarot:

Oppoq qishey, oppoq qish,  
Eh qorlari yumshoq qish.  
Chana, konki o'ynatgan,  
Quvnoq qishey, quvnoq qish.

Oppoq qishey, oppoq qish,  
Eh qorlari yumshoq qish.  
Chana, konki o'ynatgan,  
Quvnoq qishey, quvnoq qish.

### MUSIQADA O'LCHOVLAR



Har qanday yangrayotgan yoki notaga tushirilgan musiqa asari-ning o'z o'lchovi bor. O'lchovlar notaga qarab ijro etishni osonlashtiradi. Bu esa asarni tinglovchiga ma'qul qilishda katta yordam beradi. O'lchovlarning aytilishi va yozilishi quyidagicha:

Ikki chorak — 2/4  
Uch chorak — 3/4  
To'rt chorak — 4/4  
Olti-yu sakkiz — 6/8 va hokazo.

Musiqada o'lchov raqamlari asar boshlanishida, kalitlar va alteratsiya belgilaridan so'ng qo'yiladi. Bunga ishonish uchun sinfingizda mavjud nota to'plamlarini varaqlab ko'ring.

### Savol va topshiriqlar

1. O'zbek baletlari haqida nima deya olasiz?
2. "To'maris" baletining musiqasi yoqdimi? Muallifi kim?
3. "Oppoq qishey, oppoq qish" qo'shig'ini xirgoyi qilib bering.
4. "Musiqada o'lchovlar" deganda nimani tushunasiz?

#### 4-dars. O'ZBEK RAQS SAN'ATI

Har bir xalqning qadimdan shakllanib kelayotgan o'z raqs san'ati va shu raqslarni ifodalovchi kuylari bo'ladi. O'zbek xalq raqslari ham keng ommalashgan bo'lib, nafis harakatlar va ularga yarashgan milliy kiyimlar bilan badiiy obrazlar yaratiladi.

“Dilxiroj”, “Qari navo”, “Zang”, “Duchava” kabi raqs kuylari yanraganda ko'z oldimizga aniq raqs harakatlari keladi. Keyingi davrda (XX asrning 2-yarmidan boshlab) Muhammadjon Mirzayev, Baxtiyor Aliyev, Mustafo Bafoyev va boshqa bastakorlarning yangi kuy-ohanglari asosida o'zbek raqs san'ati rivoj topdi. Bunga Mukarrama Turg'unboyeva, Qunduz Mirkarimova, Yulduz Ismatova kabilarning sahnalashtirgan raqs-lari misol bo'la oladi.




O'zbek raqsidan foto



*Sinf fonotekasidan M. Mirzayevning “Bahor valsini va boshqa raqs kuylarini tinglang.*

## NOTA CHO'ZIMLARINI TAKTLARGA BO'LISH

 Notaga tushirilgan kuyning aniq o'lchovi bo'lsa, u albatta taktlarga bo'linadi. Biror-bir kuy notalarini taktlarga bo'lish uchun kuyning kuchli va kuchsiz hissalarini sezish lozim. Bunday topshiriqlarni maxsus musiqa maktablarida o'qiyotgan bolalar bajarishadi. Lekin, oddiy choraklar bilan yozilgan kuyni turli o'lchovlarga ajratib, takt chiziqlari qo'yib chiqsa bo'ladi. Masalan:



### Savol va topshiriqlar

1. O'zbek raqs san'ati haqida gapirib bering.
2. Tinglangan raqs kuylariga qanday raqslar qo'ysa bo'ladi? Kiyimlar qanday bo'lishi kerak?
3. Nota cho'zimlarini taktlarga bo'lish haqida fikr bildiring.
4. "Oppoq qishey, oppoq qish" qo'shig'ini o'zingizga sherik tanlab kuylab bering.



## 5-dars. MUSIQALI DRAMA

O'zbekistonda musiqa san'atining barcha janrlari qatori musiqali drama va komediya — sahnaviy musiqa asarlari ham keng tarqalgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab, Yevropa operalariga taqlid sifatida bu janrlar rivojlangan.

Musiqali drama — cholg'u va vokal musiqa asosiy o'rinni egalagan dramatik sahna asaridir. To'xtasin Jalilovning "Tohir va Zuhra"si, "Nurxon"i, Tolibjon Sodiqov va R. Glierlarning "Layli va Majnun"i, keyinchalik Yu. Rajabiy, Sayfi Jalil, Mustafu Bafoyev, Farhod Alimov kabi bastakorlar yaratgan asarlar musiqali drama janrining yorqin namunalariga aylangan.



*Sinf fonotekasidan T. Jalilovning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasidan parcha tinglang.*

### ONA QO'LLARI

G'afur Qodirov musiqasi

To'liqin Ilhomov she'ri

#### Shoshilmay



Ba-hor kel-sa shox-lar-da bul-bul-lar kuy cha-la-di.




O-na soz ol-sa qo'l-ga a-jib kuy ta-ra-la-di.



#### Naqarot:



Hor-mang, o-na qo'l-la-ri, tol-mang, o-na qo'l-la-ri,



Zumrad bahor quyoshi  
Yashnatar chechaklarni.  
Aziz ona qo'llari  
Ulg'aytar go'daklarni.

Naqarot:

Esar bahor shamoli,  
Tiniq bo'lsin, deb osmon.  
Tinmas ona qo'llari,  
Tinch bo'lsin, deb keng jahon.


Naqarot:

Shoshar bahor suvlari,  
Yerlarni yasatay, deb.  
Tinmas ona qo'llari,  
Hayotni bezatay, deb.

Naqarot:

Esar bahor shamoli,  
Tiniq bo'lsin, deb osmon.  
Tinmas ona qo'llari,  
Tinch bo'lsin, deb keng jahon.

## DIRIJYORLIK SAN'ATI

 Dirijyor — musiqa asarini ijro etuvchi xor yoki orkestr jamoasiga rahbarlik qilib, yo'lga soluvchi san'atkordir. U musiqa sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi shart. Tayyor asarga o'lchovini ko'rsatib, qo'l qimirlatib turishdan oson ish yo'q. Buni biz tez o'rganib olishimiz mumkin. Lekin, hamma qiyinchilik bir asarni yoki konsert dasturini tayyorlab, tinglovchilarga yetkazgungacha bo'lgan davrda kechadi.

Vatanimiz musiqa madaniyati yuksalishida dirijyorlik san'atining o'sib borishi katta ahamiyatga ega.

Aziz o'quvchilar! Agar musiqada keng tarqalgan asosiy 3 o'lchovda dirijyorlik qilishni o'rganib olishni xohlasangiz, keyingi 3 darsni diqqat bilan o'rganing.



### Savol va topshiriqlar

1. Musiqali drama haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Tinglangan parcha sizlarga yoqdimi? “Otmagay tong” duetini xirgoyi qilib bering.
3. “Ona qo‘llari” qo‘shig‘ining mualliflari kimlar?
4. Dirijyor va dirijyorlik san‘ati haqida nima deya olasiz?

### **6-dars. TO‘XTASIN JALILOVNING “TOHIR VA ZUHRA” MUSIQALI DRAMASI VA UNING O‘ZBEK SAN‘ATIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI**

To‘xtasin Jalilov 1896—1966-yillarda yashab, ijod qilgan, xalq musiqasi merosini mukammal bilgan o‘zbek bastakori edi. Uning “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi uchun yozilgan “To‘ylar muborak” va “Otmagay tong” qo‘shiqlari — xalq qo‘shiqlariga aylanib ketdi. Ijodkor uchun bundan ortiq baxt yo‘q.

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasi o‘zbek san’ati rivojida o‘rni va ahamiyati juda katta. Yuksak ijod namunasi bo‘lganligi uchun bu asar faqat Muqimiy teatrining o‘zida 2000 martaba yaqin qo‘yilgan va bundan keyin ham avlodlarga qoladi.



Muqimiy teatri spektaklidan foto




*Sinf fonotekasidan “To‘ylar muborak” va “Otmagay tong” qo‘shiqlarini tinglang.*

### “IKKI CHORAK” (2/4) O‘LCHOVIDA DIRIJYORLIK



Bu o‘lchovda dirijyorlik qilish uchun chiroyli qomat bilan tik turib, ikkala qo‘l yelka balandligida oldinga ko‘tariladi, barmoqlar bo‘sh qo‘yiladi. Nafas olib, ikkala qo‘l bir tekis quyidagi chizib qo‘yilgan yo‘nalish bo‘yicha harakatlana boshlaydi:

Chap qo'l



O'ng qo'l



“Bir” deganda qo'llar pastga tushib, yonga ketadi; “Ikki” deganda esa yuqoriga ko'tariladi va bu harakat bir ma'romda musiqa tugaguncha takrorlanaveradi.

### Savol va topshiriqlar

1. T. Jalilov va uning “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi haqida gapirib bering.
2. Tinglangan qo'shiqlarni sinfdoshlar birgalikda aytib ko'ring.
3. “Ikki chorak”da dirijyorlik qilish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
4. “Ona qo'llari” qo'shig'ini o'zingizga sherik tanlab, xirgoyi qiling.

### 7-dars. MUSIQALI KOMEDIYA

Musiqali komediyaning musiqali dramadan farqi juda kam. Faqat ularni dramatik mavzuning yo'nalishiga qarab ajratish mumkin:

jiddiy mavzudagisi — musiqali drama bo'lsa, hajviy mavzudagisi — musiqali komediya dir.

Shuning uchun komediyalarning musiqasi ham yengil, yorqin ohanglarda bo'ladi. Ozarbayjon bastakori Uzeyir Xojibekovning “Arshin mol-olon”, Manas Leviyevning “Toshbolta oshiq” va “Oltin ko'l”, Ikrom Akbarovning “O'jarlar” kabi asarlari bu'nga misol bo'la oladi.



*Sinf fonotekasidan “Toshbolta oshiq” musiqali komediyasidan parchalar tinglang.*

# QUYOSH BILAN SUHBAT

Avaz Mansurov musiqasi

Xurshid Qayumov she'ri




Bu-gun tong-da qush-lar-dan ham er-ta tur- dim,



Gul-bo-g'im-da qu-yosh bi- lan suh- bat qu- dim.



Qu-yosh men-ga: "Ku-ning quv-noq bo'l-sin" de-di,



Men qu- yosh-ga: "Nu-ring por-loq bo'l-sin!" de- dim.



Na-na- na, na-na- na- na, na- na- na- na,



Na- na- na-na- na- na- na- na, na-na- na- na



Na- na- na-na, na- na- na-na



Na- na-na- na-na- na-na- na- na Na-na-na-na



na- na- na- na- na- na- na- na!


Bugun tongda qushlardan ham erta turdim.  
 Gul bog'imda quyosh bilan suhbat qurdim.  
 Quyosh menga: "Kuning quvnoq bo'lsin" dedi,  
 Men quyoshga: "Nuring porloq bo'lsin" dedim.  
 Ol, senga! — deb boshim uzra nurin sochdi,  
 Gullarim ham nur qo'ynida ko'zin ochdi.  
 Gulbog'imni nurda ko'rib quvnoq ko'zim,  
 Shuning uchun gul-lolaga o'xshar yuzim.

### “UCH CHORAK” (3/4) O‘LCHOVIDA DIRIJYORLIK




Chiroyli qomat bilan dirijyorlik holatini egallab, ikkala qo'l bir-biriga teskari 3 yo'nalishda quyida chizib qo'yilganidek harakatlana boshlaydi:

Chap qo'l



O'ng qo'l



“Bir” deganda qo'l pastga tushiriladi, “ikki” deganda yon tomonga ketadi, “uch” deganda esa yuqoriga ko'tariladi va bu harakat bir ma'romda musiqa tugaguncha takrorlanaveriladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Musiqali komediya janri haqida bilganlaringizni gapirib bering.
2. “Toshbolta oshiq” dan tinglangan parchada musiqaning o'rni qanday?
3. “Quyosh bilan suhbat” qo'shig'ining mualliflari kim? Xirgoyi qilib bering.
4. “Uch chorak”da biror-bit kuyni xirgoyi qilib, dirijyorlik qiling.

## 8-dars. UZYEIR HOJIBEKOVNING “ARSHIN MOL-OLON” MUSIQALI KOMEDIYASINING DUNYO XALQLARI SAN'ATIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Uz yeir Hojibekov 1885—1948-yillarda yashab, ijod qilgan buyuk Ozarbayjon bastakoridir. Uning nomi ellarga taralgan, ohanglari barchaga tanish bo'lib qolgan. Bunga asosiy sabab, o'z xalqining musiqa merosini mukammal bilish bilan birga dunyo madaniyatini ham chuqur o'rganganidir. Shunday bilimlarga ega ijodkorgina barcha insonlarga yoqadigan asarlar yaratishi mumkin. “Arshin mol-olon” musiqali komediyasi dunyo xalqlari san'atining durdona asariga aylanib ketgani bejiz emas, albatta. Bu asar o'zbek xalqining ham sevimli asarlaridan biri, barcha teatrlarimizda sahnalashtirilgan. Ko'pgina bastakorlarimiz havas bilan undan andoza olishgan.




*Sinf fonotekasidan “Arshin mol-olon” kuy — qo'shiqlaridan tinglab, zavq oling.*

### “TO'RT CHORAK” (4/4) O'LCHOVIDA DIRIJYORLIK




“To'rt chorak” (4/4) o'lchovida qo'l 4 yo'nalishda harakatlanadi:

Chap qo'l



O'ng qo'l



“bir” deganda qo'llar pastga tushiriladi;

“ikki” deganda ular bir-biri tomon yo'naltiriladi;

“uch” deganda o'ng qo'l o'ngga, chap qo'l chapga yo'naltiriladi;



“to‘rt” deganda esa qo‘llar yuqoriga ko‘tariladi.

Dirijyorlik harakatlari bir ma‘romda musiqa tugaguncha davom ettiriladi.

Qaysi o‘lchovda dirijyorlik qilinishidan qat‘i nazar kuy tugaganda xuddi osilib turgan ipni uzgandek birpas qotib turiladi.

### Savol va topshiriqlar

1. U. Hojibekov va uning “Arshin mol-olon” musiqali komediyasining o‘rni va ahamiyati haqida gapiring.
2. “Arshin mol-olon”dan tinglangan parcha sizga tanishmi? Ohanglari yoqdimi?
3. “To‘rt chorak”da dirijyorlik qilib, o‘zingiz marsh ohang to‘qing.
4. Sinfdoشلaringiz bir tekis qo‘llarini qirsillatib turishsin, bitta do‘stingiz 4/4 o‘lchovida dirijyorlik qilsin, siz esa “Quyosh bilan suhbat” qo‘shig‘ini yoqimli qilib ijro eting.

### **9-dars. O‘ZBEK BASTAKORLARI — IKROM AKBAROV, SAYFI JALIL, MUSTAFO BAFOYEV, FARHOD ALIMOV VA BOSHQALAR IJODIDA MUSIQALI DRAMA VA KOMEDIYALARNING O‘RNI**

Musiqali drama va komediya janri O‘zbekistonda shakllanib, birinchi namunalari yaratilib bo‘lingandan so‘ng, keyingi avlod vakillari tomonidan ko‘plab asarlar dunyoga keldi. Bunga misol qilib — Ikrom Akbarovning “O‘jarlar”, “Qonli to‘y”, “Momo yer”larini, Sayfi Jalilning “Navoiy Astrobodda” (Yu. Rajabiy bilan hamkorlikda), “Shayton va muridlar”, “Laqma”, “Kampir ketarmish”larini, Mustafu Bafoyevning “Uzilgan torlar”, “Prometey”, “Zo‘ldir”larini, Farhod Alimovning “Yusuf va Zulayho”, “Nodirabegim”, “Fotima va Zuhra” va “Devona”larini sanab o‘tish mumkin. Shuningdek, bu janrlarda M. Mahmudov, T. Qurbonov, X. Rahimov, A. Mansurov, A. Ergashev kabi bastakorlar ham elga manzur bo‘lgan asarlar yaratishgan.



*Sinf videotekasidan F. Alimovning “Fotima va Zuhra” musiqali dramasidan lavha tomosha qiling yoki fonotekadan shu asar kuy-qo‘shiqlaridan tinglang.*

# CHAMANDAGI GULLARMIZ

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Po'lat Mo'min she'ri

Sho'x, quvnoq

1. Biz -lar ko'p - miz dun-yo- da  
Suv oq- qan -day dar- yo- da  
Biz yur- sak qa- tor- la- shib  
Ko'- cha- lar ke- tar to- shib  
Qiz- lar- miz  
O'- g'il- lar- miz cha-man- da- gi  
gul- lar- miz, cha-man- da- gi gul-lar- miz. Qiz-lar- miz  
o'- g'il- lar- miz.

2. Qo‘shiq aytsak baralla  
Top-toza tonggi palla-  
Ovozimizni tinglab  
Oftob chiqar yitillab.

3. Olamni kuldiraylik,  
Shodlikka to‘ldiraylik.  
Bizlar o‘qib, ishlaymiz,  
Chin do‘stlikni istaymiz!

Qizlarmiz, o‘g‘illarmiz:  
Chamandagi gullarmiz.

Qizlarmiz, o‘g‘illarmiz:  
Chamandagi gullarmiz.



Musiqa savodi bo‘yicha 3-chorakda o‘rgangan bilimlaringizni  
qaytarib, mustahkamlab oling.

### Savol va topshiriqlar

1. I. Akbarov, S. Jalil, M. Bafojev, F. Alimov va boshqa o‘zingiz bilgan o‘zbek bastakorlari tomonidan yaratilgan musiqali drama va komediyalar nomlarini sanab o‘ting.
2. Tinglangan parcha haqida fikr bildiring.
3. Taniqli o‘zbek bastakori Nadim Norxo‘jayev haqida nimalarni bilasiz?
4. “Chamandagi gullarmiz” qo‘shig‘ini xirgoyi qilib ko‘ring.

## 10-dars. RESPUBLIKA TEATRLARIDA BOLALAR UCHUN YARATILGAN MUSIQALI ERTAK — TOMOSHALAR

O‘zbekiston bastakorlari respublikamizdagi mavjud barcha teatr jamoalari va dramaturglari bilan hamkorlikda har yili bolalar uchun o‘nlab musiqali ertak — tomoshalar yaratadilar. Ishlari yaxshi tashkil qilingan maktab rahbarlari o‘quvchilarni tez-tez teatrlarga olib borib turishadi.

Respublika teatrlarida bolalar uchun namoyish etilayotgan eng yaxshi musiqali ertak — tomoshalar nomlarini va ularning mualliflarini eslab qoling:

### Muqimiy nomli Respublika davlat musiqali teatrida:

- To‘lqin Toshmatov* — “Ur, to‘qmoq!”,  
“Muzaffar — quyosh farzandi”;
- Nadim Norxo‘jayev* — “Tuyaqush — boyaqish;
- Avaz Mansurov* — “Kachal polvon va Garmsel”;
- Mustafo Bafojev* — “Yettinchi jin”.

**Respublika qo'g'irchoq teatrida:**

- Abdusaid Nabiyev* — “Fotimaning sarguzashtlari”;  
*Avaz Mansurov* — “Xo‘ja Nasriddinning 41 pashshasi”,  
“Ur, to‘qmoq!”,  
“Uchar kovush”,  
“Sho‘x shaytonchalar”.  
*Anvar Ergashev* — “Sehrlı harflar oroli”;  
*Alisher Ikromov* — “Oloviddin va sehrlı chiroq”,  
“Oltin kalitcha”.

**Respublika yosh tomoshabinlar teatrida:**

- Anvar Ergashev* — “Ballı, uloqcha!”,  
“Sehrlı kitob”.  
*Avaz Mansurov* — “Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi”;  
*Nadim Norxo‘jayev* — “Jo‘jalarım”.



*Sinf videotekasidan Abdusaid Nabiyevning “Fotimaning sarguzashtlari” musiqali-ertagini tomosha qiling yoki fonotekadan shu asar kuy-qo‘shiqlarini tinglang.*



**Respublika qo'g'irchoq teatri spektaklidan foto**



Musiqa darsidan eng qiziqarli test savol-javoblari jadvalini tayyorlang. Buning uchun 1-, 2- va 3-choraklarda o'rgangan bilimlaringizdan foydalaning.

### III chorak yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Respublikamiz teatrlarida bolalar uchun yaratilgan musiqali ertak-tomoshalar haqida gapirib bering.
2. Bastakorlarning sanab o'tilgan asarlari nomlarini aytib bering.
3. "Fotimaning sarguzashtlari" asaridan qo'shiq va ohanglarni xirgoyi qilib bering.
4. O'zingizga sherik tanlab "Chamandagi gullarmiz" qo'shig'ini aytib bering.
5. Musiqali drama va komediyalar yaratgan qaysi o'zbek bastakorlarini bilasiz?
6. "Arshin mol-olon" musiqali komediyasining o'rni, ahamiyati va uning muallifi haqida gapirib bering.
7. Turli o'lchovlarda dirijyorlik qilib bering.
8. Balet san'ati haqida bilganlaringizni gapiring.
9. III chorakda o'rgangan qo'shiqlaringizni birgalikda kuylang.

## IV CHORAK

---

### OPERA SAN'ATI VA O'ZBEK MUSIQASIDA OPERA JANRI

#### *1-dars. OPERA SAN'ATI*

Opera — musiqa san'atining eng yirik janri hisoblanadi. U bastakorning talabiga javob beradigan libretto, ya'ni she'riy-dramatik pesa asosida yaratiladi. Opera ham teatr tomoshasidir, barcha sahna bezaklari, kiyim-kechaklar, raqs harakatlari va boshqalar asar mavzusini, bo'lib o'tayotgan voqea davrini ochishga xizmat qiladi. Operada voqealar, gapiriladigan so'zlar-u kuylanadigan qo'shiqlar, hamma-hammasi musiqa-ga asoslangan bo'ladi.

Opera XVI asrning oxirlarida Italiyada paydo bo'lgan. U mavzusi va musiqa tiliga qarab, asosan 2 turga ya'ni jiddiy operalar va hajviy operalarga bo'linadi.

Italiyalik bastakor Juzeppe Verdi, Avstriyalik bastakor Volfgang Amadey Motsart opera yaratishning eng yaxshi namunalarini yozib ketganlaridan so'ng, bu janrning taraqqiyoti XIX asrda Rossiyada yuksaklarga ko'tarildi. Buni butun dunyo xalqlari tan oladi. Bastakor Mixail Glinka (1804—1857-yillarda yashab, ijod qilgan) — “Ivan Susanin”, “Ruslan va Lyudmila” operalarini yaratib, rus opera san'atiga asos soldi.



*Sinfonotekasidan M. Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasidan uvertyura va parcha tinglang.*

## PARVOZDAGI QUSHCHALAR

Rustam Abdullayev musiqasi

Mirpo'lat Mirzayev she'ri

### Sho'x, quvnoq

Par-voz qil-gan qush-cha-lar, Chi-roy-li-siz  
bun-cha-lar, Bir-ga o'y-nay-lik, ho,  
Bir-ga kuy-lay-lik. Men kaf-tim-da  
tu-tay don, Hov-lim-da yay-rang sho-don,  
Bir-ga o'y-nay-lik, ho, Bir-ga kuy-lay-  
lik.  
lik.

2. Har tong uchay siz bilan,  
Ko'kni quchay siz bilan,  
Birga o'ynaylik, ho,  
Birga kuylaylik.

Chiqib yuksak olamga,  
Nur keltiray onamga,  
Birga o'ynaylik, ho,  
Birga kuylaylik.

## Savol va topshiriqlar

1. Opera san'ati haqida o'qiganlaringizni gapirib bering.
2. "Ruslan va Lyudmila" operasining musiqasi sizga yoqdimi? Ko'z oldingizga nimalar keldi?
3. "Parvozdagi qushchalar" qo'shig'ini xirgoyi qilib ko'ring.

### 2-dars. JAHON OPERA SAN'ATIDA J. VERDI IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI

Juzeppе Verdi 1813—1901-yillarda yashab, ijod qilgan Italiyalik buyuk bastakordir. Uning—"Aida", "Rigoletto", "Traviata", "Otello" kabi operalari shu janrda yaratilgan 27 ta asari ichida eng durdonalari hisoblanadi. Verdi operalari sahnaga qo'yilib, birinchi ijro bo'lgan kun Italiyada bayramga aylanib ketardi. Xalq muallifni olqishlab, hozirgina tinglab-tomosha qilgan operalaridan kuy-qo'shiqlarni yodlab olib, ko'chalarda baralla aytib uylariga qaytishardi.

Albatta, bunday muvaffaqiyatlarning sababi, J. Verdi o'z xalqining kuy-ohanglarini yaxshi bilishi va o'tkir didli ijodkor sifatida tinglovchilar ehtiyojini yaxshi sezishidir.

J. Verdidan so'ng butun dunyo xalqlaridan chiqqan bastakorlar uning darajasida operalar yaratishni havas qilishadi, orzu qilishadi... Demak, jahon opera san'atida J. Verdi ijodining o'z o'rni bor va ahamiyati katta.



*Sinf fonotekasidan J. Verdining "Aida" va "Rigoletto" operalaridan parchalar tinglang.*

Aziz o'quvchilar! I, II, III choraklarda musiqa savodi bo'yicha siz anchagina bilimlarga ega bo'ldingiz. Endi notaga qarab, dirijyorlik qilib kuylab ketishga o'rganishingiz kerak. Bunday kuylash mahoratini musiqada "solfedjio" qilish deyiladi.

#### "RE-MINOR" TONALLIGIDA OVOZ SOZLANG!



Avaz Mansurovning "Hayvonlar sultoni" operasidan quyidagi "Sher Sulton xirgoyisi"ni 4/4 o'lchovida dirijyorlik qilib, notalarini kuylang, so'ng so'zlari bilan ayting:



## Og'ir, vazmin



Men- man Sher-lar sul- to- ni, Shu o'r- mon hu-  
k(i)m- do- ri. Bo'y- sun- gan- lar ya- shay- di,  
Bo'y sun- ma- gan qaq- shay- di, Hov...

### Savol va topshiriqlar

1. Jahon opera san'atida J.Verdi ijodining o'рни va ahamiyati haqida o'qiganlaringizni gapirib bering.
2. "Aida" va "Rigoletto" operalaridan tinglangan parchalar sizga yoqdimi?
3. "Solfedjio" qilish deganda nimani tushunasiz?
4. "Sher Sulton xirgoyisi"ni kuylaganingizda ko'z oldingizga qanday obraz keldi?

### **3-dars. V.MOTSART, J.BIZE, P.CHAYKOVSKIY, N.RIMSKIY-KORSAKOV KABI DUNYO TAN OLGAN BASTAKORLARNING OPERALARI**

Opera san'ati paydo bo'lgandan buyon qancha-qancha bastakorlar dunyoga kelib, shu janrda qalam tebratib ko'rishgan. Turli tillarda ko'plab operalar sahnalashtirilgan. Ulardan birlari faqat bir marta, boshqalari ko'p marta qo'yilgan. Lekin, kamdan-kam mualliflarning operalari Juzeppe Verding operalari kabi asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda...

Asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan opera durdonalari mualliflarining nomlari bugungi kunda ham butun dunyoga taniqli. Balki, sizlarning ham qulog'ingizga ularning nomlari chalingandir: Wolfgang Amadey Motsart, Jorj Bize, Pyotr Chaykovskiy, Nikolay Rimskiy-Korsakov. Agar nomlari notanish bo'lsa, ularning ohanglari qulog'ingizga jo bo'lib ul-

gurganiga musiqasini tinglab ko'rsangiz ishonasiz, albatta. Hozircha nomlarini eslab qoling:

- V. Motsart — “Volshebnaya fleyta” (“Sehrlı nay”)  
Jorj Bize — “Karmen”  
Pyotr Chaykovskiy — “Pikovaya dama” (“Toppon xonim”)  
“Evgeniy Onegin”  
N. Rimskiy-Korsakov — “Snegurochka” (“Qor qiz”)  
“Sadko”  
“Shoh Sulton haqida ertak”  
“Oltin xo'rozcha”



*Sinfonotekasidan V. Motsartning “Sehrlı nay” operasidan “Qayerdan taralmoqda bu totli navo” qo'shig'ini, J. Bizening “Karmen” operasiga muqaddimasini tinglang.*

### OYMOMAJON ROM BO'LDI

*Shermat Yormatov musiqasi*

*Quddus Muhammadiy she'ri*

**Solist**

Oy- mo- ma-jon rom bo'l-di, rom bo'l-di. di.


Os- mon gum-baz tom bo'l-di, tom bo'l-di. di.

Os- mon gum- baz to- mi- ga lo- chin bo'-lib qo'na- miz

Yo- rug' yul- duz yu- zi- ga, Muh-ri-miz-ni qo'- ya- miz.




O'z- be- kis- ton bay- ro- g'in




Oy us- ti- ga ti- ka- miz

a.....



os-mon- ning qo' Oy us- ti- ga  
-ri- -q'i -qa

ti-ka-miz ol- tin chi- git



ol- tin chi- git e- ka- miz Os-mon-ning qo'-

e- ka miz a.....



ri- g'i- ga ol-tin chi-git e- ka- miz.

Oymomajon rom bo'ldi,  
Osmon gumbaz tom bo'ldi.  
Osmon gumbaz tomiga,  
Lochin bo'lib qo'namiz.  
Yorug' yulduz yuziga,  
Muhrimizni qo'yamiz.

Naqarot:

O'zbekiston bayrog'in,  
Oy ustiga tikamiz.  
Osmonning qo'rig'iga,  
Oltin chigit ekamiz.

Oymomajon rom bo'ldi,  
Osmon gumbaz tom bo'ldi.  
Endi yulduz, oy bilan  
Qilamiz bordi-keldi.  
Ertakdagi orzumiz  
Bizning elda hal bo'ldi.

Naqarot:

O'zbekiston bayrog'in,  
Oy ustiga tikamiz.  
Osmonning qo'rig'iga,  
Oltin chigit ekamiz.

### Savol va topshiriqlar

1. Dunyo tan olgan bastakorlar va ularning operalari haqida bilganlaringizni gapirib bering.
2. "Sehrli nay" va "Karmen" operalaridan tinglagan parchalaringiz sizga manzur bo'ldimi? Ohanglarini xirgoyi qilib ko'ring.
3. "Oymomajon rom bo'ldi" qo'shig'ining mualliflari kim? O'rganib olgan bo'lsangiz kuylab bering.
4. O'zingiz test savol-javoblari tuzing va yozma yoki og'zaki so'rov o'tkazing. Eng ko'p to'g'ri javoblar topgan sinfdoshingizni qarsaklar chalib, olqishlang.

### 4-dars. O'ZBEK MUSIQASIDA OPERA JANRI

O'zbek musiqasi tarixida birinchi opera 1939-yilda yaratilgan, deb ko'pgina kitoblarda yozilgan. Bunga — o'sha paytda yosh bastakor bo'lgan Muxtor Ashrafiyning ustози S. N. Vasilenko bilan hamkorlikda yozgan "Bo'ron" operasi misol bo'la oladi. O'zbekistonda opera janrining shakllanishida dastlabki pog'ona bo'lgan "Bo'ron"dan keyin talaygina o'zbekcha operalar dunyoga keldi. Bular — R. Glier va T. Sodiqovning "Layli va Majnun", Muxtor Ashrafiyning "Dilorom", "Shoir xotirasi", Rashid Xamrayevning "Zulmatdan ziyo", Sobir Boboyevning "Hamza", "Fidoyilar", Hamid Rahimovning "Zafar", Ibrohim Hamrayevning "Oyjamol", Ikrom Akbarovning "So'g'd elining qoplani", Mutal Burhonovning "Alisher Navoiy", Sayfi Jalilning "Zebunniso", M. Bafoyevning "Umar Xayyom", Ulug'bek Musayev, Nurilla Zokirov,

Rustam Abdullayev, Habibullo Rahimov, Avaz Mansurov kabi o'zbek bastakorlarining qator operalaridir.

Sulaymon Yudakov yozgan opera — “Maysaraning ishi”, birinchi o'zbek hajviy operasi bo'lib, butun dunyoga tanilganini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Bolalar uchun yozilgan va sahnalashtirilgan o'zbek operalari ko'p emas. Bular — Sobir Boboyevning “Yoriltosh”, Sayfi Jalilning “Malikai ayyor” va Avaz Mansurovning “Hayvonlar sultoni” operalaridir.



*Sinf fonotekasidan o'zbek operalaridan ariya va qo'shiqlar tinglang.*

### “RE-MINOR” TONALLIGIDA OVOZ SOZLANG!

“Hayvonlar sultoni” operasidan quyidagi “Tulki xirgoyisi”ni 4/4 o'lchovida dirijyorlik qilib, notalarini kuylang, so'ng so'zlari bilan ayting:

**Asta-sekin**

Bu er- lar- da eng a-q(i) l-li me-nim- cha  
bit- ta o'-zim, G'irt yol- g'on bo'l- sa ham- ki  
yer- da qol-may- di so'- zim...

### Savol va topshiriqlar

1. O'zbek musiqasi tarixida birinchi opera qachon va kim tomonidan yaratilgan?
2. Keyinchalik yozilgan operalar va ularning mualliflarini birma-bir sanab o'ting.
3. O'zbek operalaridan tinglangan ariya va qo'shiqlar haqida fikr bildiring.
4. “Tulki xirgoyisi”ni solfedjio qilib kuylaganingizda ko'z oldingizga qanday obraz keldi?

## 5-dars. MUXTOR ASHRAFIYNING O‘ZBEK MUSIQASI RIVOJIDAGI O‘RNI

Muxtor Ashrafiy 1912—1975-yillarda yashab, ijod qilgan, o‘zbek professional bastakorligi shakllanishida birinchilardan bo‘lgan musiqa san‘ati allomasidir. Uni xalqimiz — bastakor, dirijyor, ustoz, katta rahbar sifatida yaxshi tanigan, qilgan mehnatlariga yarasha ardoqlagan. Vafotidan so‘ng uning nomiga konservatoriya, bilim yurti, maktablar, ko‘chalar qo‘yilishi bejiz emas, albatta.

Muxtor Ashrafiy bastakor sifatida barcha janrlarda ijod qilgan. Uning qalamiga mansub — 4 ta opera, 3 ta balet, 2 ta simfoniya va boshqa ko‘pgina kamer-cholg‘u, kamer-vokal va o‘nlab qo‘shiqlarni sanab o‘tish mumkin. Ijodkorning Toshkentda yashagan uyi bugungi kunda “Uy-muzeyi” ga aylantirilgan. Musiga san‘ati shinavandalari bu “Uy — muzeyi” bilan yaqindan tanishish uchun barcha viloyatlardan tashrif buyurishib, ziyorat qilishadi.



*Sinf fonotekasidan “Dilorom” operasidan ariya va duetlar tinglang.*

### ZAVQING SOCH, QALDIRG‘OCH

*Nadim Norxo‘jayev musiqasi*

*Po‘lat Mo‘min she‘ri*

**Sho‘x, quvnoq**

Say-ra-shing qan-day soz E-kan-san xush o-voz

Ting-lay-man qo‘-shiq-day Maz-mu-ni qi-ziq-

day Qal-dir-g‘och, qal-dir-g‘och

Men- ga o'z di- ling och. Dil- lar- ga zav- qing soch,  
 qal- dir- g'och tamomlash uchun  
 Qal-dir-g'och, qal-dir-g'och man- ga o'z di- ling- ni och

2. Ohanging eh mayin,  
 Sayragin tinglayin.  
 Har tongda odatda,  
 Tinglayman rohatda.

Qaldirg'och, Qaldirg'och,  
 Menga o'z dilingni och.  
 Dillarga zavqing soch  
 Qaldirg'och.

### Savol va topshiriqlar

1. M. Ashrafiyning o'zbek musiqasi rivojidadagi o'rni haqida o'qiganlaringizni gapirib bering.
2. Tinglangan ariya va duetlar so'zlarini tushundingizmi? Nimalar haqida kuylandi?
3. O'zingizga sherik tanlab "Zavqing soch, qaldirg'och" qo'shig'ini kuylang, sinfdoshlaringiz qarsak chalib turishsin.
4. O'zingiz test savol-javoblari tuzing va yozma yoki og'zaki so'rov o'tkazing. Eng ko'p to'g'ri javoblar topgan sinfdoshingizni qarsaklar chalib, olqishlang.

## 6-dars. SULAYMON YUDAKOVNING “MAYSARANING ISHI” OPERASI, UNING YARATILISH TARIXI, O‘RNI VA AHAMIYATI

Askiya san'atining o'chog'i bo'lmish — Qo'qon shahrida tug'ilib, o'sgan Sulaymon Yudakov — (1916—1990-yillarda yashab, ijod qilgan) — tabiatan quvnoq, hazilkash inson bo'lgan. Sinchkov ijodkor sifatida o'zbeklarga hajviy opera va hajviy mavzudagi balet ma'qul bo'lishini ko'p yillar kuzatib yurgan, kuzatishlari samara bergan. Opera janrida — “Maysaraning ishi”ni yaratib, balet janrida — “Nasriddinning sarguzashtlari”ni yozib qoldirib, ulkan ish qilgan. Bu baletning premerasi, ya'ni birinchi ijrosi bastakor vafotidan so'ng ko'p yillar o'tib 1997-yilda bo'ldi. Ijodkorga o'z asarini sahnada ko'rish nasib etmadi...

“Maysaraning ishi” operasida eski zamonlarda qozi, boy va kambag'allar o'rtasida bo'lib o'tgan bir voqea aks ettirilgan. Opera janrining talablariga to'la javob beradigan bunday asarni hozirgi kunda ham xalqimiz sevib tomosha qiladi. O'zbek musiqa san'ati rivojida bu asarning o'rni va ahamiyati katta.

“Maysaraning ishi” operasini tinglab ko'rsangiz, xuddi xalq kuy-qo'shiqlaridek qulog'ingizga yoqadi.



*Sinf fonotekasidan “Maysaraning ishi” operasidan parchalar tinglang.*

### “MI-MINOR” TONALLIGIDA OVOZ SOZLANG!



“Hayvonlar sultoni” operasidan quyidagi “Bo'ri xirgoyisi”ni 4/4 o'lchovida dirijyorlik qilib, notalarini kuylang, so'ng so'zlari bilan ayting:

#### Shoshilib



Menochbo'-ri-man,

qor-nim to'y-may-di.

Qu-yon-cha-lar-ga



ye-tib bo'l-may-di. Qu-yon ye-yish-ni do-im ku-tar-man,  
Shosh-mayturse-ni bir kun tu-tar-man, Hey... hey!

### Savol va topshiriqlar

1. Sulaymon Yudakov ijodi va uning “Maysaraning ishi” operasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. “Maysaraning ishi” operasidan tinglangan parchalar haqidagi fikringiz?
3. “Bo‘ri xirgoyisi”ni solfedjio qilib kuylaganingizda ko‘z oldingizga qanday obraz keldi?
4. O‘zingiz test savol-javoblari tuzing va yozma yoki og‘zaki so‘rov o‘tkazing. Eng ko‘p to‘g‘ri javoblar topgan sinfdoshingizni qarsaklar ch‘alib, olqishlang.

### 7-dars. BOLALAR UCHUN OPERALAR

O‘zbek tilida bolalar uchun yozilgan operalar haqida biz shu chorakning to‘rtinchi darsida o‘qiganmiz va faqat 3 tagina “Yoriltosh”, “Malikai ayyor”, “Hayvonlar sultoni” operalari sahna yuzini ko‘rganligi haqida bilib olganmiz. Har birimizda, “Nima uchun bolalarga operalar kam yaratilgan ekan?”, — degan savol tug‘iladi, albatta. Operalar yozgan ijodkorlarga shu savolni bersa, hammalari birdek quyidagicha javob berishadi: “Bolalar operasini kattalar uchun yozgandek, iloji bo‘lsa, yanada yaxshi, yanada qiziqarli va voqealarga boy tomosha qilib yozish kerak, bu esa anchagina mashaqqatli ish...”, — deyishadi. Haqiqatan ham shunday.

Yillar o‘tib, bugungi bolalar orasidan zabardast bastakorlar chiqib, yosh avlod uchun o‘nlab, yuzlab operalar yaratishlariga ishonamiz. Hozircha, opera yoki balet tomosha qilgani teatrqa borganda nimalarni bilish lozimligini o‘rganib olishimiz kerak.

Avvalombor, bunday tomoshalarga boshlanishidan 15—20 daqiqa oldinroq borish darkor. Sababi, teatr eshigidan kirib kelganingizda qo‘lingizga bo‘ladigan opera yoki baletning qisqacha mazmuni yozilgan

dasturcha berishadi. Bu dasturchada asar mualliflari, sahnalashtiruvchilar va ishtirokchilar haqida ham ma'lumotlar bo'ladi. Tomosha boshlanguncha siz dasturchani o'qib chiqsangiz, bo'ladigan voqealarni oldindan bilib olib, asosan musiqa tinglab, zavq olasiz, hordiq chiqarasiz.

Shunday misol sifatida Avaz Mansurovning B. Isroil va F. Safarov librettosiga yozilgan — "Hayvonlar sultoni" operasining qisqacha mazmunini o'qib chiqing:

## PROLOG

*O'rmon. Barcha hayvonlar to'planishib turadigan joy. Sho'x ohanglarda xirgoyi qilib o'tib ketayotgan quyonchalardan so'ng Ertakchi bobo paydo bo'ladi, u o'rmon tabiatini madh etadi. Shu o'rmonda yashaydigan jonzotlarni birma-bir tanishtiradi. Ular — Sher Sulton, Bo'ri, Quyon, Ayiq, Tulki — o'zlari haqida qo'shiqlar aytishadi. Ertakchi bobo tonglar otib, kunlar botib bunda har kun hayot qaynashini, hech to'ymaslar — ochko'zlar faqat o'lja payida yurishlarini aytadi va bir kun bo'lib o'tgan voqeani tomosha qilishga taklif etadi...*

## VOQEA

*Ikki och bo'rining yangi avjida. Tulki paydo bo'lib, bo'rilar talashayotgan o'limtik kiyikni olib qochmoqchi bo'ladi. Bo'rilar sezib qolib tulkini haydab yuborishadi va jangni davom ettirishadi. Tulki alamkashlik qilib hayvonlar sultoni — Sher Sultonni yetaklab keladi. Sher Sulton ikkala bo'ri arzlarini tinglab, ajrim qiladi. Talashganlar tarqalishib, Sher Sulton pana joyda dam olishga yotadi.*

*O'ynab-quv nab quyonchalar kirib kelishadi. Ayyor tulki yana paydo bo'ladi. Quyonlardan biri "Men botirman! Bokschiman! Hattoki Sher Sultonni nakaut qip qo'yaman!" — deb, maqtanib qoladi. Tulki paytdan foydalanib, hayvonlar sultoni-ga o'xshatma qilayotgan quyonni Sher Sultonga ro'para qilib qo'yadi. Botirligi puchga chiqadi. Sher Sulton o'zining yengilmasligidan, salobatidan mamnun bo'ladi...*

*Kutilmaganda o'rmonda to's-to'polon boshlanadi. Hamma hayvonlar o'zlarini yo'qatib qo'yishgan, ular Sher Sultonni ham pisand qilmay qolishdi, hukmdor hayron... Hayvonlar tarqalgach, Sher Sulton panaga berkinadi. Baralla qo'shiq aytib, Odam kirib keladi. Sher Sulton ustiga to'r tashlaydi. Hayvonlar yordamida ham Sher to'rdan ozod bo'la olmaydi. Yengilganini bo'yniga olib, "Ne sharting bor!" deb so'raydi. Odam — do'stlik, tinchlik va bahtiyor hayotni taklif etadi. Hammalari do'stlikni madh etib, raqs tushishadi, qo'shiq aytishadi:*

*"Do'stlik bor bo'lsin!*

*Tinchlik bor bo'lsin!"*

**Aziz o'quvchilar!**

**Endi bu asarni tinglab, tomosha qilsa bo'ladi...**



*Sinf videotekasidan A.Mansurovning "Hayvonlar sultoni" operasini tinglab, tomosha qiling.*

### **Savol va topshiriqlar**

1. Bolalar uchun operalar haqida o'qiganlaringizni so'zlab bering.
2. Opera yoki balet tomoshasini ko'rgani teatrda borilganda nimalarni bilish lozim?
3. "Hayvonlar sultoni" operasining qisqacha mazmunini o'qib, bo'ladigan voqeani bilib oldingizmi? "...musiqasini tinglab, zavq olasiz, hordiq chiqarasiz", deyilganiga endi ishonch hosil qildingizmi?
4. Tinglab, tomosha qilingan — "Hayvonlar sultoni" operasi sizga ma'qul bo'ldimi? Esingizda qolgan kuy-qo'shiqlarini xirgoyi qilib bering.

### **8-dars. ZAMONAVIY BASTAKORLIK IJODIYOTINING MADANIY RIVOJLANISHIMIZDAGI AHAMIYATI**

Zamonaviy bastakorlik ijodiyoti, deganda biz butun jahon xalqlarining musiqiy rivojlanishi natijasida shakllangan turli janrlarda asarlar yaratuvchilikni tushunishimiz kerak. Opera, balet, oratoriya, kantata, simfoniyalar, barcha sahnaviy musiqa asarlari, xor asarlari, kamer-cholg'u asarlariga kiradigan — kvartet, sonata va kuylar, vokal asarlari bo'lmish — romans, qo'shiq kabi janrlarda asarlar yarata oladigan ijodkorlarni esa zamonaviy bastakorlar, deb bilsak bo'ladi.

5-sinf "Musiqqa darsligi"ni o'qib chiqish jarayonida siz turli badiiy jamoalar uchun ijod qilgan va ijod qilayotgan zamonaviy bastakorlar asarlari bilan yaqindan tanishdingiz. Barcha janrlarda yaratilgan asarlardan namunalar tingladingiz, ularning ohanglari qulog'ingizda qoldi. O'rgangan bilimlaringiz albatta sizga ko'mak beradi, bolaligingizda tinglangan sehrli ohanglar hayotingizga hamroh bo'ladi. Yillar o'tib, odamlar orasida o'zingizni madaniyatli, musiqa sohasida to'g'ri fikr yurita oladigan inson bo'lib yetishganingizni sezasiz. Zamonaviy bastakorlik ijodiyotining ma'naviyatimiz va madaniy rivojlanishimizdagi o'rni va ahamiyati katta ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

## YOSHLAR RAMZIY QO'SHIG'I

Avaz Mansurov musiqasi

Prezident Islom Karimovning  
xitob so'zlari asosida

### Tantanavor

*Yakkaxon:*

E- lim deb, yur- tim deb      yo- nib ya- shay- miz!

*P Hamma:*

E- lim deb, yur- tim deb      yo- nib ya- shay- miz!

*f Yakkaxon:*

Tu- ron yurt    cha- ma- nin      biz gul- gun- la- ri!

*mp Hamma:*

Tu- ron yurt    cha- ma- nin      biz gul- gun- la- ri!

*Yakkaxon:*

Nav- qi- ron    av- lo- di,      sho'x bul- bul- la- ri!

*mf Hamma:*

Nav- qi- ron    av- lo- di,      sho'x bul- bul- la- ri!

*Yakkaxon:*      *ff Hamma:*


Yurt o- bod!      Yurt o- bod!

*Yakkaxon:*      *Hamma:*

El o- bod!      El o- bod!

*Yakkaxon:*      *f Hamma:*

Par- vo- zing- ga qa- not- miz!      Par- vo- zing- ga qa- not- mi!



E lim deb, yurtim deb  
Yonib yashaymiz!  
Turon yurt chamanin  
Biz gulgunlari!  
Navqiron avlodi,  
Sho'x bulbullari!  
Yurt obod!  
El obod!  
Parvozingga qanotmiz!  
O'zbekiston!, O'zbekiston!  
E lim deb, yurtim deb  
Yonib yashaymiz!

# XAYR, MAKTABJON!

Avaz Mansurov musiqasi

Xurshid Qayumov she'ri

## Sho'h quvnoq

Qu- yosh nu- ri, mu- saf- fo ha- vo,  
zi- lol an- hor, ya- shil o't- loq- lar,  
Chor- lar bu- gun bag'- ri - ga biz- ni,  
Biz- ni ku- tar en- siz so'q- moq- lar...  
Naqarot:  
Xayr, xayr bi- lim- ga kon mak- tab- jon.  
Ko'- rish- gun- cha, xayr, us- toz meh- ri - bon.  
Xayr, xayr bi- lim- ga kon mak- tab- jon.  
Ko'- rish- gun- cha, xayr, us- toz meh- ri - bon,



meh- ri - - bon...



Tugallash uchun

Hey,

Hey...

Hey!

Quyosh nuri, musaffo havo,  
Zilol anhor, yashil o'tloqlar,  
Chorlar bugun bag'riga bizni,  
Bizni kutar ensiz so'qmoqlar...

Naqarot:

Xayr, xayr bilimga kon maktabjon,  
Ko'rishguncha, xayr, ustoz mehribon.

Vodiylarda yangrar kuyimiz,  
Cho'qqilarda izimiz qolar.  
Chiniqamiz, xordiq olamiz,  
Go'zal fasl dilga zavq solar...

Naqarot:

So'lim bog'lar kutmoqda bizni,  
Tabiatning ko'rinishi soz.  
Bag'ri shodlik, sevinchlarga boy,  
Qanday ajib jazirama yoz...

Naqarot:

## Savol va topshiriqlar

1. Zamonaviy bastakorlik ijodiyotining ma'naviyatimiz va madaniy rivojlanishimizdagi o'rni va ahamiyati haqida o'qiganlaringizni gapirib bering.
2. Xalq cholg'ulari orkestri uchun yaratilgan va xzingiz bilib olgan asarlarning nomlarini mualliflari bilan sanab o'ting.
3. Xor asarlari yozgan bastakorlarni bilasizmi?
4. Simfonik orkestr va musiqada vokal-simfonik janrlar borligi haqida fikr bildiring.
5. Sahnaviy musiqa asarlariga qaysi janrlar kiradi?
6. Opera san'ati va o'zbek musiqasida opera janri haqida qisqa qilib o'z fikringizni bildira olasizmi?
7. 5-sinf musiqa darslarida o'rgangan qo'shiqlaringizni sanab, qaysi bastakor va shoir qalamiga mansub ekanligini aytib bering.
8. "Xayr, maktabjon!" qo'shig'ini o'rganib olgan bo'lsangiz, qarsak chalib turib, birgalikda jo'shib kuylang. Shu qo'shiqni maktabingizdagi barcha 5-sinf o'quvchilari bilan "So'nggi qo'ng'iroq" kuni ijro etishni kelishib oling.



## MUNDARIJA

Soʻz boshi .....	3
------------------	---

### I CHORAK

#### OʻZBEK XALQ CHOLGʻULARI ORKESTRI. XOR SANʻATI

1-dars. Orkestr turlari haqida. Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri va uning damli cholgʻular guruhi .....	4
2-dars. Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrining torli-urma va mezrobli cholgʻular guruhi .....	9
3-dars. Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrining zarbli cholgʻular guruhi .....	11
4-dars. Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrining torli-kamonli cholgʻular gurugʻi .....	15
5-dars. Xor sanʻati .....	17
6-dars. Xor ijrosi uchun xalq qoʻshiqlarini moslashtirish .....	19
7-dars. Xor uchun professional janrlarda ijod qilish .....	25
8-dars. Xor jamoalarining tuzilishi va turlari .....	29
9-dars. Xalq cholgʻulari orkestri va xor uchun Oʻzbekiston bastakorlari ijodining ahamiyati .....	31

### II CHORAK

#### SIMFONIK ORKESTR. MUSIQADA VOKAL-SIMFONIK JANRLAR

1-dars. Simfonik orkestr va uning torli-kamonli cholgʻular guruhi .....	33
2-dars. Simfonik orkestrning yogʻoch va mis damli cholgʻular guruhi .....	38
3-dars. Simfonik orkestrning zarbli cholgʻular guruhi .....	41
4-dars. Intervallar haqida tushunchalar .....	44
5-dars. Musiqada vokal-simfonik janrlar .....	45

6-dars. Qasida janri .....	48
7-dars. Kantata va oratoriyalar .....	49

### III CHORAK

#### SAHNAVIY MUSIQA ASARLARI — BALET VA RAQS SAN'ATI, MUSIQALI DRAMA VA KOMEDIYA, BOLALAR UCHUN MUSIQALI ERTAK-TOMOSHALAR

1-dars. Sahnaviy musiqa asarlari .....	50
2-dars. Balet san'ati .....	54
3-dars. O'zbek baletlari .....	55
4-dars. O'zbek raqs san'ati .....	59
5-dars. Musiqali drama .....	61
6-dars. To'xtasin. Jalilovning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi va uning o'zbek san'atida tutgan o'rni va ahamiyati .....	63
7-dars. Musiqali komediya .....	65
8-dars. Uzeir Hojibekovning "Arshin mol-olon" musiqali komediyasining dunyo xalqlari san'atidagi o'rni va ahamiyati .....	68
9-dars. O'zbek bastakorlari — I. Akbarov, S. Jalil, M. Bafoyev, F. Alimov va boshqalar ijodida musiqali drama va komediyalarning o'rni .....	69
10-dars. Respublika teatrlarida bolalar uchun yaratilgan musiqali ertak- tomoshalar .....	71

### IV CHORAK

#### OPERA SAN'ATI VA O'ZBEK MUSIQASIDA OPERA JANRI

1-dars. Opera san'ati .....	74
2-dars. Jahon opera san'atida J. Verdi ijodining o'rni va ahamiyati .....	76
3-dars. V. Motsart, J. Bize, P. Chaykovskiy, N. Rimskiy-Korsakov kabi dunyo tan olgan bastakorlarning operalari .....	77
4-dars. O'zbek musiqasida opera janri .....	80

5-dars. Muxtor Ashrafiyning o'zbek musiqasi rivojidagi o'rni .....	82
6-dars. Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" operasi, uning yaratilish tarixi, o'rni va ahamiyati .....	84
7-dars. Bolalar uchun operalar .....	85
8-dars. Zamonaviy bastakorlik ijodiyotining madaniy rivojlanishidagi ahamiyati .....	87

AVAZ MANSUROV, DILDORA KARIMOVA

**MUSIQA**

5-sinf uchun darslik

Muharrir *O. Rahimov*  
Musavvirlar *A. Bobrov, M. Odilov*  
Badiiy muharrir *H. Xudayberdiyev*  
Texnik muharrir *T. Smirnova*  
Musahhah *L. Mirzaahmedova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *E. Kim*

IB №3967

Bosishga 25.04.2001 y. da ruxsat etildi. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. "Tayms" garnitura. Ofset bosma. 7,02 shartli bosma toboq. 8,0 nashr bosma tobog'i. Jami 300000 (1-zavod 50000) nusxa. 21—2001 raqamli shartnoma. 128 - raqamli buyurtma. Bahosi 471 - so'm.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Toshkent Rangli bosma fabrilasi. Toshkent, Usmon Yusupov ko'chasi, 86.